

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посту

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oly burchimiz!



2025-yil 16-may
juma

№ 20 (4714)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРИ, ГЕНЕРАЛ-МАЙОР АЗИЗ ТАШПУЛАТОВНИНГ «POSTDA-НА ПОСТУ» ГАЗЕТАСИННИГ 95 ЙИЛЛИГИ МУНОСАБАТИ БИЛАН ТАБРИГИ

Бугун мамлакатимизда барча соҳаларда инсон қадрини улуғлашга қаратилган туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ушбу жараёнда, сўз ва матбуот эркинлиги ҳамда давлат органлари фаолиятининг очиқлигини таъминлаш устувор вазифалардан бирiga айланди.

Жамиятда ҳукуқ-тартиботни мустаҳкамлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш, ёш авлодни Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш борасидаги ишларда оммавий ахборот воситаларининг ҳам алоҳида ўрни бор.

Президентимиз Шавкат Миронович Мирзиёев ўтган йили Матбуот ва оммавий ах-

борот воситалари ходимларига йўллаган байрам табригидага «**Бугунги кунда матбуот иши, журналистлар фаолияти нафақат «тўртинчи ҳокимият», балки мудофаа, хавфсизлик каби ҳал қилювчи соҳага айланиб бормоқда**», дега алоҳида таъкидлайдилар.

Чиндан ҳам, жамият кўзгуси бўлган оммавий ахборот воситалари юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар билан бир қаторда, жаҳонда ва минтақамизда юз бераётган воқеа-ҳодисаларга теран нигоҳ ташлаб, кузатувчини тегишли хулоса чиқаришга ва юрт тақдирига дахлдорлик ҳисси билан яшашга унダメоқда.

Шу маънода, Ички ишлар вазирлигининг «Postda – На посту» газетаси ҳам узоқ йиллик тарихи, бой тажриба ва салоҳиятига кўра, ўз

ўқувчиларини тизимда амалга оширилаётган ислоҳотлардан узлуксиз хабардор қилиб, турили ёт гоялар ва жамиятдаги иллатлардан огоҳ бўлишга даъват этиб келмоқда.

Хозирги кунда мамлакатимизда фаолият юритаётган 600 дан зиёд газета ва 700 га яқин журналлар орасида «Postda-На посту» газетасининг ҳам ўз овози ва қиёфаси, муносаби ўрни бор.

1930 йилдан бошлаб чоп этилган ушбу нашрнинг ilk сони газетхонлар қўлига этиб борганига 95 йил тўлди. Салкам бир асрга яқин вақтдан бўён «Postda-На посту» газетаси ўз ўқувчиларига эга бўлган етакчи нашрлардан бири сифатида кўп сонли муштариylарнинг меҳрини қозониб келмоқда.

(Давоми 2-бетда.)

ЎЗ АЙТАР СЎЗИГА ЭГА ОТАХОН ГАЗЕТА салкам бир аср ахборот майдонида

Тўқсон беш йил. Салкам бир аср. Айтишга осон рақам бу. Лекин бу давр мобайнида юртимиздаги рўзномалар орасида – «Postda-На посту» газетасида қанчадан-қанча ижодкорлар тер тўкмади, дейиз. Нашр саҳифаларида ички ишлар органлари ходимларининг машақатли фаолияти ёритилиши билан бир қаторда, ўқувчиларнинг маънавияти, маърифати ва ҳукуқий онгини юксалтиришга хизмат қиласидиган неча юз минглаб мақолалар олам юзини кўрди.

(Давоми 4–5-бетда.)



(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Ушбу газета айниқса, ички ишлар органларида олиб борилаётган янгиланиш ва ўзгаришларни ёритишда, ходимларимиз ва улар оила аъзоларининг дунёкарашини кенгайтириш, сиёсий, маънавий, ҳуқуқий билим ва салоҳиятни оширишда муҳим аҳамият қасб этмоқда.

Ходимларнинг юрт тинчлиги ва ҳалқимиз осойишталигини таъминлаш борасидаги машиқатли фаолияти, қувонч ва ташвишлари, улар эришган ютуқлар, жиноятчиликка қарши курашиш йўлида жон фидо қилган мард ўғлонларнинг ёрқин хотираси, истеъдодли ходимларнинг ижод намуналари – буларнинг барчаси газета саҳифаларида ўз аксини топган, десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз.

Ички ишлар органлари ходимлари ўртасида мутолаа маданиятини ривожлантириш ва китобхонликни кенг тарғиб этиш борасида ҳам ижодий жамоа томонидан салмоқли ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Хусусан, «ИИВ Бирлашган таҳририяти кутубхонасидан» туркумида «Маънавият ва маърифат чашмаси», «Ёшлар – келажак пойдевори», «Коррупция – тараққиёт душмани», «Нурли маскан орзулари», «Жасорат ва буюклик тимсоли – аёл», «Юртнинг жасур ўғлонлари» каби 10 дан зиёд номдаги китоблар нашр этилиб, тизимдаги «Ватанпарварлик бурчаклари» ҳамда кутубхоналарга берилди ва бу ижобий анъана изчил давом этмоқда.

Сўнгги йилларда ИИВ Бирлашган таҳририяти томонидан мамлакатимизнинг бошқа ҳуқуқ-тартибот органлари нашрлари қаторида, Россия Федерациясида нашр этиладиган, МДҲ

давлатлари Ички ишлар вазирликлари нашри бўлган «Содружество» журнали ва «Щит и меч» газетаси таҳририятлари билан яқин ижодий ҳамкорлик ўрнатилгани «Postda-На посту» газетасининг нуфузини, ҳалқаро оммавий ахборот воситалари орасида ҳам оммаболгигини оширишга хизмат қилмоқда.

Алоҳида таъкидлаш ўринлики, яқин йиллар давомида таҳририят ижодий жамоаси турли маҳаллий ва ҳалқаро танловларда ҳам фаол иштирок этиб, муносиб ютуқларни кўлга киритди.

Жумладан, Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси томонидан ўтказилган «Олтин қалам» миллий мукофоти учун ҳалқаро танлови, «Энг улуғ, энг азиз», «Йилнинг энг фаол журналисти», «Инсон ҳуқуқлари – журналист нигоҳида», «Армия – юртимиз тинчлиги ва осойишталиги рамзи», «Биз коррупцияга қаршимиз» каби танловлар, ижодкор аёллар ўртасидаги «Атиргул» мукофоти каби ижодий мусобақаларда таҳририят мухбирлари фахрли ўринларни эгалладилар.

Бирлашган таҳририятнинг МДҲ худудларида уюшган жиноятчиликка ва жиноятларнинг бошқа хавфли турларига қарши курашни мувофиқлаштириш бўйича бюроси томонидан ўтказилган танловнинг «Замонамиз қаҳрамонлари» номинациясида ғолиб бўлгани, шунингдек, Олий Мажлис Сенати ҳамда Оила ва хотин-қизлар қўмитаси томонидан ўтказилган ижодий танловнинг «Гендер тенгликни тарғиб қилишга қаратилган энг яхши нашр» йўналишида ғолиблар сафидан ўрин олгани ва «Олтин қалам» миллий мукофоти совриндори бўлгани ижодий жамоада хизмат қилаётган

журналистларнинг маҳорати ва салоҳиятидан дарак беради, албатта.

Хозирги вақтда «Postda-На посту» газетасида фаолият олиб бораётган ижодкорларнинг 6 нафари Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси ҳисобланади.

Бир сўз билан айтганда, бугун ахборот майдонида ўз айтар сўзига эга бўлган, аср билан юзлашаётган «Postda-На посту» газетаси жамоаси улуғвор мақсадлар ва юксак ишонч билан энг аввало, ҳалқ манфаатлари йўлида хизмат қилаётган ҳар бир ходимнинг маънавиятини ошириш борасида янги форя ва ташабbusларни илгари суреб, ўз саҳифалари орқали муҳим ва ранг-баранг мавзуларни чуқур ёритиш борасида тинимсиз изланмоқда.

Фурсатдан фойдаланиб, кўп минг сонли муштариylарга тезкор ва ишончли ахборот етказиб бериш, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларни атрофлича акс эттириш йўлида ўз профессионал вазифасини сидқидилдан адо этиб келаётган Бирлашган таҳририят жамоасига, газетанинг доимий фаол муаллифлари бўлган фидойи зиёлиларга, худудлардаги мухбир ва журналистларга алоҳида миннатдорлик билдираман.

Жамиятимизда фикрлар хилма-хиллиги, сўз ва ахборот эркинлигини таъминлаш, газета саҳифаларида тизим фаолиятининг тарғиботи орқали ҳалқимизнинг ички ишлар органларига нисбатан ҳурматини юксалтириш борасидаги фоят шарафли ва заҳматли фаолиятда таҳририят жамоасига улкан муваффақиятлар ва ижодий фаоллик доимо ёр бўлишини тилайман.

ТҮЙХАТ ЎРНИДА

ПИРИ БАДАВЛАТЛИК СИРИ

Ваҳобжон Фуломовиҷ 1981 йили ИИВ Молия-режалаштириш бошқармаси катта муҳандис-иқтисодчиси лавозимига таъинлангач, иш жараёнida унча қийналмади. Сабаби, бунгача 4–5 йил банқда ишлаб, муайян амалий кўниқма ҳосил қилганди. Қолаверса, соҳага оид молиявий ҳужжатларни расмийлаштиришнинг ўзига хос жиҳатларини устозлари – полковниклар Шуҳрат Исҳоқхўжаев, Николай Цой, подполковник Ўқтам Сидиқовдан ўрганди. Лекин ўша кезлари ҳужжатлар рустилида юритилгани боис, бу борада анча қийналгани рост.

Орадан 4 йил ўтиб, вазирликнинг Ахлоқ тузатиш ишлари бошқармасига ўтказилгач, яна бир қийинчиликка дуч келди. Гап шундаки, мазкур тизим Москвадан молиялаштириларди. Зарур маблағни ундириш учун тез-тез сабиқ иттифоқ пойтахтига бориб, бир ҳафта-ўн кунлаб сарғайишга мажбур бўларди.

Кейинроқ ИИВ ЁСБ Молия-режалаштириш бўлими бошлиғининг ўринбосари, вазирликнинг Молия-иқтисод бошқармаси бўлим бошлиғи лавозимларида ишлади. Лекин бундоқ ўйлаб кўрса, чорак асрлик хизмат фаолиятининг асосий қисми Жазони ижро этиш тизимида кечиби.

1996 – 2006 йиллар оралиғида ушбу тизимда анчагина ишларни амалга оширишга ИИВ ЖИЭББ Молия-режалаштириш бошқар-

маси бошлиғи сифатида салмоқли ҳисса қўшди. Ушбу даврда қишлоқ ҳўжалигига, чорвачиликка ихтисослашган қатор манзил колониялар ташкил қилинди. Хориждан сутни қайта ишлашга мўлжалланган илфор технологиялар олиб келинди. Маҳкумларнинг яшаш шароитлари яхшиланди. Жазони ижро этиш муассасаларининг моддий-техник базаси мустаҳкамланди. Хусусан, улар учун кўплаб автотранспорт воситалари харид қилинди.

Лавҳамиз қаҳрамони ўзига муносиб шогирдлар ҳам тарбиялаб етиштириди. Улардан полковниклар Абдуҳамид Расулов, Қобилжон Абдураҳмонов, подполковник Азиз Тўлаганов турли масъул лавозимларда хизмат қилишибди. Полковник Ваҳобжон Эргашев 2007 йилда ИИВ ЖИЭБ бошлиғининг ўринбо-



сири лавозимидан иззат-икром билан пенсияга кузатилди. Лекин ҳалигача ҳамкаслари билан алоқалари узилгани йўқ. Уни ИИВ ҳузуридаги ЖИЭДда бўлиб ўтадиган тантанали тадбирларга, уч авлод учрашувларига таклиф этишади. Шогирдлари йўқлаб туришади. Бундан қувонмай бўладими.

«Умр – оқар сув» деб бежиз айтишмайди. Ваҳоб Фуломович

15 май куни 70 ёшга тўлди. Уни бемалол пири бадавлат инсон деса бўлади. Бунинг сири – Зухра опа билан аҳил-иноқликда бир-бирини тушуниб, авайлаб, бир-бирига меҳр-оқибат кўрсатиб умргузаронлик қилиб келяпти. Хозир иккаласи фарзандлару неваралари ардоғида. Зухра опа 40 йилдан зиёд банк тизимида ишлаган, меҳнат фахрийси. Қизларидан Зулфия ота изидан бориб, ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб, майор унвонида пенсияга чиқди. Дилфузга эса тадбиркор.

– Ўригидан данаги ширин бўларкан, – дейди Ваҳобжон ака. – Невараларимнинг баҳту иқболидан қувониб юрибман. Улардан Мунисса Турин политехника университети аспиранти. Вазира бўлса Тошкент давлат стоматология институти талабаси. Қолганлари ҳали мактабда ўқишиди.

Фурсатдан фойдаланиб, истеъфодаги полковник Ваҳобжон Эргашевни табаррук 70 ёши билан қутлаб, барча невараларининг баҳту камолини кўришини тилаб қоламиз.

**Бобомурод ТОШЕВ,
ӯз мухбиримиз.**

ХАЛҚ БИЛАН ҲАМНАФАС

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг Қорақалпоғистон Республикаси ёшлари билан учрашуви бўлиб ўтди.

Сўнгги йилларда давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан мамлакатимизда ёшлар масалалари давлат сиёсати даражасига кўтарилигани ушбу йўналишга эътибор нақадар муҳим эканлигини намоён қилмоқда.

Белгиланган вазифаларнинг ижросини таъминлаш мақсадида Ички ишлар вазири, генерал-майор Азиз Ташпулатов, соҳага оид масъуллар иштирокида Қорақалпоғистон Республикаси ёшлари билан учрашиб, уларнинг мурожаатлари, таклиф ҳамда мулоҳазалари тингланди.

Учрашувда Ёшлар ишлари агентлиги, Спорт вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Олий

ишлар органлари ходимлари билан бир қаторда ҳамкор ташкилотларнинг маҳалла еттилиги билан бирга ишлаш механизми яратилган бўлиб, ҳар бир ёшнинг муаммоси «хонадонбай» ўрганилмоқда, масъул раҳбарлар ҳар ойда камида бир маротаба ўзларига бириктирилган ёшлар билан учрашиб, уларнинг салоҳиятини юзага чиқаришга, талаб юқори бўлган касб-хунарга ўқитиш орқали бандлигини таъминлашга, ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришга ҳар томонлама кўмаклашмоқда.

Учрашув ёшлар томонидан билдирилган янги ташаббус ва таклифлар билан янада қизғин



таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Ташқи меҳнат миграцияси агентлиги, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Марказий банк, Асака банк ҳамда Алоқа банки, шунингдек соҳага масъул бошқа идораларнинг вакиллари иштирокида 180 нафар ёшлар ва уларнинг ота-оналари қатнашди.

Тадбирда бугун юртимизда ёшларга қаратилаётган эътибор ва ғамхўрлик боис эртамиз умидлари илм-фан, маданият, спорт соҳасида мамлакатимиз довруғини юқори кўтариш мақсадида астойдил ҳаракат қилишаётганлиги, бу борада уларга ҳар жабҳада елкадош раҳбарлар борлигини алоҳида таъкидланди.

Жумладан, ёшларни қўллаб-қувватлаш тадбирларида ички

ўтди. Айниқса, ёшларнинг саволлари ҳамда мурожаатларига масъуллар алоҳида эътибор қаратишиди.

Хусусан, ёшлар ва уларнинг ота-оналари томонидан жами 79 та мурожаат келиб тушган бўлиб, уларнинг барчаси қаноатлантирилди. 47 нафар ёшга қизиқишиларидан келиб чиқиб, зарур асбоб-ускуна, анжомлар ва компьютер жамланмалари топширилди. Учрашувда фаол қатнашган 30 нафар ёшга эсадлик совғалари ва китоб жамланмалари берилди.

Самимий рухда ўтган мулокотда ёшларнинг муаммоларига ечим топиш ҳамда келгусида мазкур фаолиятни такомилластириш учун зарур чора-тадбирлар белгилаб олинди.

Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳрида аҳоли учун оммавий сайёр қабул ташкил этилди.



Давлатимиз раҳбарининг аҳоли мурожаатлари билан ишлаш самарадорлигини ошириш бўйича топшириклари ижросини таъминлаш мақсадида Ички ишлар вазири генерал-майор Азиз Ташпулатов томонидан Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг Раиси Аманбай Орынбаев иштирокида жорий йилнинг 14 май куни Нукус шаҳрида аҳоли учун оммавий сайёр қабул ўтказди.

Сайёр қабулда аҳоли мурожаатларини ўрганиш, уларни самарали ҳал этиш, ҳалқ билан очиқ мулокот ўрнатиш ҳамда аниқланган муаммоларни бартараф этиш масалаларига жиддий эътибор қаратилди.

Тадбир доирасида фуқаролардан ички ишлар органлари фаолиятига оид жами 155 та мурожаат қабул қилиниб, барчаси атрофлича ўрганилди.

Мурожаатларни кўриб чиқиши жараёнида фуқароларнинг реал эҳтиёж ва талабларини иnobatga олган ҳолда, узоқ йиллар давомида ечимини топмай келайтган муаммоларни аниқлаш ва бартараф этишга алоҳида эътибор берилди.

Мурожаатларнинг 62 таси (40 фоизи) тегишли тартибда ижобий ҳал этилиб, кўриб чиқилиши вақт талаб қилганини сабабли 93 та мурожаат (60 фоизи)ни ўрганиш масаласи қатъий назоратга олинди. Қабулда 13 нафар фуқаро томонидан миннатдорлик ифодалangan ҳатлар ҳам тақдим этилди.

Шунингдек, сайёр қабул давомида 17 нафар фуқаролиги бўлмаган шахсга мамлакатимиз қонунчилигига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги берилиб, ID-карталари тантанали равишда топширилди.

Ўз мухбиришим.



РЕПОРТАЖ

ЎЗ АЙТАР СЎЗИГА

(Давоми. Бошланиши
1-бетда.)

1930 йил 12 майданчиқа бошлаган газета дастлаб бир ойда уч марта, 150 нусхада чоп этилган бўлса, 50-йилларга келиб, тиражи 6 мингга етди. Таҳририят ходимларининг саъй-ҳаракати билан 1960 йилдан эътиборан ҳафтасига икки марта, 10 минг нусхада чиқа бошлади. 1965 йил 1 августдан бошлаб нашрларнинг кенг жамоатчиликка мўлжалланган якшанба сонларини чоп этиш йўлга қўйилди. Муштариylарнинг талаб-эҳтиёжларидан келиб чиқиб, 1970 йилдан ҳафтада уч марта босила бошланди.

XX асрнинг 90-йиллар бошида Ички ишлар вазирлиги раҳбарияти ташаббуси билан қайта ташкил этилиб, 1991 йил 1 январда икки тилда алоҳида чоп этилган нашрларнинг илк сони ички ишлар органлари ходимлари ва кенг жамоатчиликка этиб борди.

Ички ишлар вазирлиги Маданият саройида ахборот майдонида ўз айтар сўзига эга бўлган отахон газетамиз «Postda – На посту» ташкил этилганинг 95 йиллигини нишонлашга бағишланган тадбир бўлиб ўтди. Унда Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор Даврон Назармуҳамедов, Олий Мажлис Сенати аъзолари, Президент Администрацияси хузуридаги АОКА, Журналистлар уюшмаси, Марказий нашрлар бош муҳаррирлари, ички ишлар органлари фахрийлари ҳамда вазирлик соҳавий хизматлари ходимлари иштирок этди.

Тадбир аввалида газетанинг 95 йиллиги муносабати билан тайёрланган видеоролик намойиш этилди. Шундан сўнг Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор Даврон Назармуҳамедов «Postda-На посту» газе-



газетасининг юбилейи муносабати билан Бирлашган таҳририят ижодий жамоасини самимий табриклиди.

– Кундалик ҳаётимизнинг ажралмас қисми бўлган оммавий ахборот воситалари ҳақида сўз юритганда, биз, аввало, доимо янгилик излаб, янгиликка интилиб, ҳаётнинг қайноқ нуқталарига кириб борадиган, холислик ва ҳақонийлик, Ватан ҳамда ҳалқ манфатларини биринчи ўринга қўядиган олижаноб ва масъулиятли касб әгаларини тасаввур қиласиз.

Муҳтарам Президентимиз раҳбарлигига жамиятимизнинг барча жабхаларида амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларни муносаби тарзда ёритиш оммавий ахборот воситалари ходимларидан янада фаол, ҳозиржавоб ва ташаббускор бўлишни, мамлакатимизда кечеётган янгиланиш жараёнларини чуқур таҳлил қилишни тақозо этмоқда. ИИВ «Postda-На посту» газе-

таси ҳам бой тажриба ва салоҳиятига таянган ҳолда, ўз ўқувчиларини тизимда амалга оширилаётган ислоҳотлардан узлуксиз хабардор қилиб, турли ёт ғоялар ва жамиятдаги иллатлардан огоҳ бўлишга даъват этиб келмоқда, – деда таъкидлadi вазir ўринbosari.

– Газета-журналлар ҳали ҳам рақамли оммавий ахборот воситаларига қараганда ўзининг афзаликларига эга, – деди ўз сўзида вазир маслаҳатчиси, генерал-полковник З. Алматов. – Босма нашрнинг мазмунни ёзма сўз орқали ифодаловчи ўзига хослиги, биринчи навбатда, радио ва телевидениега қараганда матнларнинг кўпроқ таҳлилийлигидадир. Эсимда, мустақилликнинг илк йилларида ИИВ нашрларини ҳар томонлама ривожлантиришга бел боғлаганмиз. Энг биринчи навбатда, таҳририят ходимларига етарли даражада шарт-шароитлар яратиб беришимиз керак эди. Шу орқали

вазирлик газета-журналлари сифатли, ўқишли чиқишига эришиш мақсад қилинганди. Айтиш керакки, ҳозирги даврга етиб келишдаги жараёнлар осон кечмаган. Бугун чоп этилаётган турли жанрдаги мақолалар билан танишарканман, ёрқин ранглар, чиройли дизайнлар ва уларнинг сифати яққол эътиборимни тортиб, ўша пайтдаги меҳнатларимиз бесамар кетмаганлигидан ич-ичимдан хурсанд бўламан.

– Газета нафақат ички ишлар органлари фаолиятининг солномаси, балки мамлакатимизда жамоатчиликни хабардор қилиш, қонунийлик ва ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлашнинг муҳим воситасига айланди, – деди Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети ректори, сиёсий фанлар доктори, профессор Шерзодхон Қудратхўжа ўз табригиди.

– Университетимиз газета ходимларининг касбий

фаолиятига катта ҳурмат билан қарайди. Талабаларимиз учун таҳририят ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолияти ҳақида қимматли маълумот манбай, идоралараро журналистиканинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш майдони ва амалий тажриба орттириш имкониятидир.

Тадбирда юбилей муносабати билан ИИВ Бирлашган таҳририяти бир груҳ ходимларини рағбатлантириш тўғрисидаги буйруғи асосида соҳа фидойиларининг бир груҳи мукофотланди. Шунингдек, таҳририят томонидан эълон қилинган танлов ғолибларига қимматбаҳо эсдалик совғалари тантанали равишда топширилди.

– Бирлашган таҳририят билан боғлиқ кўплаб илиқ хотираларим бор, – деди Ўзбекистон, Қорақалпоғистон ва Тожикистон ҳалқ артисти, ИИВ ҳузуридаги Жамоатчилик кенгаши раиси Ёдгор Саъдиев.

– Бир пайтлар Бирлашган таҳририят қошида «Қалқон» студияси ташкил этилган эди. Студияда



ЭГА ОТАХОН ГАЗЕТА

«Шайтанат» кўп сериали фильмни суратга олинди. Шу орқали ИИВ Бирлашган таҳририятининг номи ҳам тилларга тушди. Сериалнинг муваффақияти чиқишида гене-

рал-полковник Зокиржон Алматовнинг ҳам катта ҳиссаси борлигини алоҳида эътироф этиш жоиз. Доимо янгилик излаб, янгиликка интилиб яшайдиган, жамиятда юз берадёт-



ган муҳим ўзгаришлар, устувор гоя ва ташаббусларнинг маъно-моҳиятини одамларга тезкорлик ва холислик билан етказидиган, ҳаётнинг қайноқ нуқталарига дадил кириб борадиган таҳририятнинг барча жонкуяр ходимларига мамлакатимиз тараққиётига қўшаётган бекиёс ҳиссалари учун чуқур миннатдорлик билдириб, қутлуғ юбилей билан самимий муборакбод этаман.

Тадбирда сўз олган «Ishonch» ва «Ishonch-Доверие» газеталари бош мухаррири, сена-

тор Ҳусан Эрматов бугун одамлар матбуотдан узоқлашиб, виртуал оламга ўтиб кетаётгани, ахборот узатишида ижтимоий тармоқлар, интернет сайtlари етакчилик қилаётганини таъкидлаб, қувончлиси, шундай вазиятда ҳам ўқувчиларини йўқотмаган, матбуотнинг кучини ҳис қилдираётган нашлардан бири – «Postda-На посту» газетасидир. Газета саҳифаларини варақлассангиз, ушбу гапларим ҳавойи эмаслигига ўзингиз ҳам амин бўласиз. Яна бир яхши жиҳати шундаки, га-

зета таҳририяти «Ҳа, энди нима қиласиз, одамлар ўзгаряпти, замон ўзгаряпти, қўлимиздан нима ҳам келарди?» деб ўтиргани йўқ. Яхши маънода замонга мослашмоқда. Газетанинг сайти ва телеграм каналини ҳам бирдек ривожлантириб, ижтимоий тармоқларда ҳам ўз мухлисларини топмоқда. «Postda» телеграм канали орқали юртимиз ички ишлар органлари тизимида юз берадётган воқеликлар, тизим ходимларининг фидойи меҳнатини ихчам ахборот ва мақолалар орқали чироили ёритмоқда, дея эътироф этди сенатор.

Байрам тадбири сўнгидага ИИВ Бирлашган таҳририяти бош мұхаррири, полковник Бернора Садикова ИИВ раҳбарияти ва барча мәхмонларга ўзининг самимий миннатдорлигини билдираркан, келгусида Бирлашган таҳририят жамоаси янада салмоқли, ўқишли, дол зарб, ўқувчилар меҳрини қозонадиган мақолалари билан юртимиз равнақига ҳисса қўшишда давом этишини таъкидлади.

ИИВ Маданият саройи Ашула ва рақс ансамбли хонандаларининг концерт дастури йигилганларга хушнудлик бахш этди.

Сарвар СОБИРОВ,
ӯз мухбirimiz.



SOHA FIDOVYLARI

BEMORLAR MAMNUN

Salomatlik – eng oliv ne'mat. Kishi yaxshi eshitmasa, nafas olishga qiyalsasa, to'mog'ida nuqsoni bo'lisa, dunyo ko'ziga qorong'i ko'rinish ketadi. IIV Markaziy gospitali Otoloringologiya bo'linmasining jonkuyar xodimlari ana shunday bemorlarning joniga ora kirishadi.



Podpolkovnik Feruza Odilova.

Zamonaviy tibbiyot uskunalarini yordamida bu yerda turli muolajalar o'tkaziladi. Bo'linma boshlig'i, tibbiyot fanlari nomzodi, podpolkovnik



Tibbiy hamshiralar Nozima Qlicheva (chapda),
Dilfuza Oxunjonova (o'rtada) va Maftuna Qayumova.



Katta tibbiy hamshira Zilola Madaminova (o'ngda) va hamshira Gulchehra Bahromova.

Feruza Odilova jamoanining hamjihatlikda, samarali ishlashini ta'minlamoqda. Qo'li yengil hamshiralar Nozima Qilicheva, Dilfuza Oxunjonova va Maftuna Qayumova o'zlarining shirinson'zligi tufayli ham bemorlarning duosini olishmoqda. Bo'linma 30 o'ringa mo'ljallangan. Bemorlar bu yerda yaratilgan sharoitlardan mammun.

– Bugun bir bemorda burundagi nafas olish yo'li va suyak notejisligini tiklash bo'yicha mikrojarrohlik operatsiyasini o'tkazdik. Yana bir bemorning qulq pardasini hamda eshitish suyaklarini tiklash bo'yicha ham operatsiyani amalga oshirdik. Operatsiyalar muvaffaqiyatli yakun-

landi. Bemorlarning ahvoli yaxshi. Tez kunda butunlay sog'ayib, oilasi bag'riga qaytishadi, – deydi podpolkovnik Feruza Odilova.

Uning aytishicha, ba'zi kunlari to'rtta-beshtalab mikrojarrohlik operatsiyalarini o'tkazishga to'g'ri kelarkan. Bemorlarning dardiga malham bo'layotgan bunday shifokorlar umridan baraka topishsin, hech qachon kasal bo'lishmasin.

**Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.**

Suratlarda: IIV Markaziy gospitali Otoloringologiya bo'linmasi xodimlari faoliyatidan lavhalar.




O'zbekiston — qadimiy sivilizatsiya beshigi, buyuk tarixga va madaniyatga ega yurt. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi dunyo tan olgan allomalar yetishib chiqqan, jahon ilm-faniga beqiyos hissa qo'shgan insonlar aynan shu zaminda yashab o'tgan. Bu — har bir yurtdoshimizda milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Yangi maktablar, universitetlar, zavodlar, yo'llar va boshqa infratuzilmalar barpo etildi. Har bir fuqaroning hayotini yaxshilashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda.

Men shu aziz yurting farzandi bo'lganimdan faxrlanaman. Chunki bu yurt menqa tinchlikni, erkinlikni, ta'lim olish huquqini, o'z qobiliyatimni namoyon etish imkonini berdi. Endi esa mening navbatim — Vatan oldidagi burchimni sidqidildan ado etish, yurtim rivojiga hissa qo'shish, uning nomi faxrlanadigan farzandlaridan biriga aylanishdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har birimiz Vatanimizni sevishimiz, unga sadoqatli bo'lishimiz va kelajagini qurishga hissa qo'shishimiz zarur. Chunki Vatan — bu bizning o'zligimiz, iftixorimiz va poydevorimizdir. Shu yurt farzandi ekanligim — men uchun iftixor manbayidir!

**Abdihamid ALLAYAROV,
kichik serjant.**



Ular nafaqat biriktirilgan kontingenta, balki xodimlarning oila a'zolari hamda 7 mingdan ortiq faxriylarga, shuningdek, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kehayotgan, bemorlarni mehr va shirin kalomi bilan ham davolayotgan sharafli kasb sohibalaridir.

Ayniqsa, boshqarma Tibbiyot bo'limi poliklinikasining tajribali hamshiralari Mahliyo Sodiqova, Hamida Mannanova, Manzura Eshonqulova, Feruza Safarova, Zarifa Salimova va Gulshoda Nabiyevalarning mehnati alohida e'tirofga munosib. Ushbu jonsarak hamshiralar yoshlarga ustozlik qilish barobarida, o'z mutaxassisliklari bo'yicha malaka va bilimlarini doimiy oshirib borishmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.**

Qashqadaryo viloyati.

 «Безопасное детство»

ПРИОРИТЕТ – ЮНЫЕ УЧАСТИКИ ДВИЖЕНИЯ

Недавно в Службе безопасности дорожного движения состоялась встреча с Уполномоченным Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам ребенка. Главной темой обсуждения стало обеспечение безопасности детей на дорогах. В ходе встречи были представлены аналитические данные, подтверждающие актуальность принимаемых мер.



В ходе встречи были озвучены результаты реализации мероприятий с начала текущего года. Сегодня в 10 770 школах страны

обучаются более 6,6 миллиона детей. В рамках инициативы на прилегающих к учебным заведениям территориях установ-



лены сотни светофоров, приподнятых пешеходных переходов, искусственных неровностей и металлических ограждений. Эти меры способствуют снижению риска дорожно-транспортных происшествий вблизи учебных заведений.

Кроме того, в 5 150 школах созданы специальные классы для обучения Правилам дорожного движения. На базе этих классов регулярно проводятся тематические уроки, направленные на повышение уровня осведомленности учащихся о правилах безопасного поведения на доро-

гах. Ученикам предоставляются информационные материалы и наглядные пособия, которые помогают лучше усваивать важные знания.

Несмотря на значительные усилия, дорожно-транспортные происшествия с участием детей остаются актуальной проблемой. На встрече были детально проанализированы причины подобных инцидентов и обсуждены конкретные предложения по их предотвращению. Участники подчеркнули необходимость дальнейшего совершенствования профилактических мер.

Зоир ЮЛДАШЕВ,
старший лейтенант.

Молодежь – наше будущее

Два года назад на должность инспектора профилактики здесь был назначен молодой лейтенант Ёркинбек Норкузиев. Первое время его появление вызывало недоверие: жители не сразу приняли энергичного и решительного сотрудника правоохранительных органов. Однако благодаря целеустремленности и упорству инспектора ситуация изменилась.

Лейтенант активно занимался профилактической работой: проводил встречи с населением, разъяснительные беседы, установил камеры видеонаблюдения на объектах торговли и в общественных местах. Эти меры помогли укрепить правопорядок. Влияние видеонаблюдения сказалось на дисциплине граждан, и махалля вскоре вошла в «зеленую» категорию.

Особое внимание инспектор уделяет молодежи: организует спортивные соревнования, культурные мероприятия, активно взаимодейству-

КЛЮЧ К УСПЕХУ

В махалле Обод турмуш Хавастского района Сырдарьинской области проживает более трех тысяч человек. Она раскинулась на живописных просторах вплоть до широких сельскохозяйственных полей. Местные жители славятся своими навыками земледелия и трудолюбием.



ет с ветеранами. Кроме того, лейтенант Норкузиев проводит работу с конфликтными семьями. За два года количество таких семей удалось сократить с десяти до одной. Например, в одной из семей инспектор помог главе найти работу на районном предприятии газоснабжения, что позволило нормализовать обстановку дома.

Благодаря инициативности Ёркинбека махалля Обод турмуш стала примером благополучия и общественного порядка. Сегодня инспектор продолжает внедрять новые проекты, стремясь сделать жизнь в своем районе еще лучше.

**Абдурахмон
МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.**



■ Сырдарьинская область

ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОЙ СЛУЖБЫ

В исправительной колонии №40 третьей региональной территории

Департамента исполнения наказания МВД Республики Узбекистан каждое утро начинается с традиционного развода личного состава. Заместитель начальника колонии по духовно-просветительской работе подполковник Жонибек Жураев всегда уделяет особое внимание внешнему виду и форме сотрудников, одновременно оценивая их морально-психологическое состояние.

«Все по уставу, настрой на службу чувствуется», – отметил он мысленно, однако решил не ограничиваться формальным подходом и поинтересоваться бытовыми и семейными вопросами, особенно у молодых сотрудников. Завершив утренние распоряжения, Жонибек Жураев отправился в кабинет, чтобы изучить личные дела. После выполнения текущих задач он наметил на конец дня посещение сотрудников на дому,

предварительно согласовав это с начальником колонии подполковником Дониёром Ботировым.

Первым в списке посещений стал старший инспектор группы по физической и боевой подготовке лейтенант Абдулафар Иброхимов. Молодой специалист родом из Гулистана и ежедневно преодолевает 25 километров до работы. В прошлом году он окончил Академию МВД и был направлен на службу в колонию. Руко-

водство застало его за уходом за садом на территории дома. В ходе визита гости познакомились с семьей лейтенанта, а его отец Абдурахмон рассказал, что в следующем году планирует женить сына, и отметил, что в семье проблем нет.

Следующим пунктом стал массив Янги Узбекистон в Гулистане, состоящий из современных девятиэтажных домов. Начальник канцелярии колонии, рядовой Улуг-



На снимке: подполковник Жонибек Жураев (за рабочим столом) с коллегой.

бек Тураев, проживает с семьей в уютной квартире, оборудованной всем необходимым для комфортной жизни. Вместе с супругой он воспитывает двоих детей. Улугбек выразил благодарность за условия проживания, подчеркнув, что комфорт дома является важным фактором эффективной службы.

Не остались без внимания и старшего инспектора отделения агитации, лейтенанта Хусниддина Мамирова, прибывшего на службу из Булунгурского района Самаркандской области после окончания Академии МВД. На первых порах ему приходилось ночевать на работе из-за отсутствия жилья. Благодаря инициативе Жонибека Жураева была найдена съемная кварти-

ра, куда молодой специалист переехал с семьей. Однако вскоре возникли трудности с арендной платой. Жонибек Жураев взял решение проблемы под личный контроль и оперативно помог с переоформлением документов. После ряда согласований с бухгалтерией вопрос удалось успешно урегулировать.

Забота о бытовых условиях сотрудников – неотъемлемая часть работы руководства исправительной колонии. Создание комфортной среды способствует укреплению морального духа и повышению эффективности службы, что является залогом стабильной и надежной работы учреждения.

Соб. корр.



На снимке: подполковник Дониёр Ботиров в гостях у своего заместителя подполковника Бехзода Каримова.

■ Бухарская область

НА ПЕРЕДОВОЙ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ

Окончив факультет военной подготовки Бухарского государственного университета, Фаррух Усмонов четыре года преподавал начальное военное образование в колледже экономики и банковского дела. Параллельно готовился осуществить давнюю мечту – перейти на службу в органы внутренних дел.

В ОВД с 2013 года. В настоящее время он служит в должности начальника орготдела ОВД Бухарского района.

– Мы занимаемся организацией изучения криминогенной ситуации в районе, анализом преступлений и правонарушений, эффективности работы оперативной службы, определяем влияние социально-экономических, демографических и иных факторов на криминоген-

ную ситуацию, систематизируем их, – говорит майор Ф. Усмонов. – Налажен мониторинг общественного мнения относительно обеспечения законности и правопорядка. Разрабатываем комплексные меры с целью борьбы с преступностью, устранения возможных угроз и вызовов безопасности граждан. Привлекаем сотрудников к проведению плановых мероприятий.



Майор Ф. Усмонов своевременно направляет к непосредственным исполнителям предписания, указанные для решения проблем, поднятых в обращениях физических и

юридических лиц. По итогам месяца готовит для руководства отчеты. Обращения касаются таких вопросов, как финансово-денежные отношения между гражданами, взыскание

долгов по заработной плате, нанесение телесных повреждений, оскорбление, мелкое хулиганство и другие.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

 PROBATSİYA XİZMATIDAN

QAYTA XATO QILMASLIK UCHUN

Bilib-bilmay jinoyatga qo'l urib, jazo muddatini o'tab chiqqan shaxslarning jamiyatda turli to'siqlarga uchrashi tufayli atrofdagilarga nisbatan ishonchszilik, yakkalanish kabi hislar paydo bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning qayta jinoyat ko'chasiga kirish ehtimolini yuzaga keltiradi.

O'tgan yili Piskent tumani IIB JXX Probatsiya guruhi nazoratida bo'lgan 138 nafr shaxs probatsiya hisobidan chiqarilgan. Jazoni ijobi etish muassasalaridan ozod etilgan 47 nafr shaxs bilan profilaktik suhbatlar olib borilib, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va bartaraf qilish, sog'lig'ini tiklash, kasbga yo'naltirish, ijtimoiy daftarlarga kiritilganlarning bandligini ta'minlash ishlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, probatsiya hisobiga olingan bir necha mahkumlarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paket»lari xulosa asosida ajratilishi belgilangan. Hozirgi kunda ushbu shaxslar tadbirkorlik, hunarmandchilik, me'morchilik yo'naliishlari bo'yicha ish faoli-

yatini yuritib kelmoqda. Nazorat ostidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha tumanda o'tgan yil mobaynida 12 marotaba «Ishga marhamat» tadbirlari tashkil etilib, 89 nafr shaxsning bandligi ta'minlanishiga erishilgan.

Bundan tashqari, 16 marotaba sayyor sud tashkil etilib, majburiyatlarini o'z vaqtida bajarib, mehnatga halol munosabatda bo'lgan 158 nafr fuqaro muddatidan oldin shartli ravishda ozod etilgan. Aksincha, jazodan qasddan bo'yin tovlagan 29 nafr shaxsning o'talmay qolgan muddati og'irroq jazoga almashtirilgan.

– Joriy yil boshidan buyon 56 nafr shaxs hisobdan chiqarilib, sud hukmini qo'pol-



ravishda buzgani uchun 12 nafarinig jazo chorasi og'irrog'iga almashtirildi. Hozirgi kunda probatsiya hisobida turadiganlarning umumiy soni 351 nafarni tashkil etadi. Yil boshidan buyon bir necha bor mehnat yarmarkalarini

tashkil etdik, – deydi Probatsiya guruhi katta inspektori, mayor Sherzod Mamadaliyev.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish, ularning

qayta jinoyatga qo'l urishining oldini olish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bugun har qachongidan-da muhimdir!

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.

 HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

QOIDABUZAR TUSHUNISHNI ISTAMADI VA...

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Birinchi mintaqaviy hudud bo'yicha saf bo'linmalari YPX otryadi katta inspektori, katta serjant Azatbay Abdimuratov «G'uzor-Buxoro-Nukus – Beyneu» A-380 xalqaro avtomagistral yo'llining Shumanay tumani hududidan o'tuvchi qismida xizmat olib borayotgandi.



U mazkur yo'lda shimoliy tomoniga qarab harakatlanib kelayotgan «DAF» rusumli yuk avtomashinasini haydovchining hujjatlarni tekshirish uchun to'xtatadi. Suhbat davomida avtotransport vositasi haydovchisi B.B.ning gap-so'zları, o'zini tutishi inspektorda shubha uyg'otadi. Shuning uchun uni alkotester moslamasida tekshirib ko'rishga qaror qiladi. Natijada haydovchingning spirtli ichimlik ichgani aniqlanib, holat yuzasidan unga nisbatan ma'muriy bayonnomma rasmiylashtirishni boshlaydi.

Shu payt B.B. hujjatlarni rasmiylashtirmaslik evaziga inspektorga 1000 AQSH dollarini miqdorida pora taklif etadi. Xodim unga pora olish yoki pora berish, hattoki unda vositachilik qilish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishini tushuntiradi. Avtotransport vositasi jarima maydonchasiga joylashtiriladi.

Lekin yo'l qo'ygan xatosini tanolish o'rniga qoidabuzar qayta-qayta pora taklif qilaveradi. Shu boisdan xodim unga nisbatan chora ko'rishni so'rab rahbariyatga bildirgi bilan murojaat qilishga majbur

bo'ladi.

Ushbu bildirgiga asosan, O'zbekiston Respublikasi IIV SHXBB Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasi va boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari hamkorligida tezkor tadbir tashkil etiladi. Tadbir davomida fuqaro B.B. katta inspektorga 1000 AQSH dollarini pora tariqasida berayotgan paytda ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinadi. Endi u yo'l qo'ygan xatosi uchun yanada og'irroq jazoga tortiladigan bo'ldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, poroxo'rlik jamiyat barqarorligiga putur yetkazuvchi, ijtimoiy xavfi yuqori va og'ir oqibatlarga olib keluvchi jinoyatlar toifasiga kiradi. Sababi, u biron-bir nojo'ya qilmish bosdi-bosdi bo'lib qolishi bilan cheklanmasdan, yangi jinoyatlar sodir etilishiga ham yo'l ochib berishi mumkin. Mazkur illatga qarshi murosasiz kurashish jamiyatni yana-daadolatli va farovon qilish yo'lidagi muhim qadamdir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSİ

YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI – AMALDA

«Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarni navbatdagi bosqichga olib chiqishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Taraqqiyot strategiyasi Yangi O'zbekistonning poydevorini tiklash va binosini qurishga qaratilgan. Bu buyuk bonyodkorlik jarayoni 2026-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan va yilma-yil amalga oshirib borilmoqda. Unda jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlari belgilangan.

Asosiy e'tibor fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan taraqqiyot strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga izchilatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, ma'naviyatni rivojlantirish, shuningdek, global muammolarga O'zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalar qamrab olingan. Eng asosiysi, 7 ta ustuvor yo'naliish va undagi 100 ta maqsadning barchasida inson qadrini ta'minlash va yuksaltirish nazarda tutilgan.

Taraqqiyot strategiyasi qabul qilinganidan buyon o'tgan 3 yillik davr mobaynida aholini ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor berildi. Ayniqsa, ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olindi. Buning uchun aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi ishlab chiqildi, ijtimoiy sug'urta tizimi, jumladan, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etildi, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shart-noma asosida taqdim etish yo'lga qo'yildi, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasi yaratildi, «Temir daftari», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari», «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» bilan integratsiya qilindi. Natijada mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj barcha aholini davlat tomonidan to'la himoya

qilishning barqaror tizimi yaratildi.

Taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, huquqbazarliklarning oldini olish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqildi. Jinoyat va ma'muriy huquqbazarlik haqida xabar berish va ularni ro'yxatga olishning «E-huquqbazarlik» yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etildi. Shu bilan birga, bir yil davomida takroran sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadigan ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan shaxslarning hisobini bir yil davomida yuritish va muddat o'tishi bilan avtomatik ravishda hisobdan olib tashlash tartibi yo'lga qo'yildi.

infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish bo'yicha maxsus dastur tayyorlandi. Bunda yo'l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, harakatni boshqarish tizimini to'la raqamlashdirish, yo'llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilarga munosib sharoitlar yaratish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlashga alohidada e'tibor qaratilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasining 17-maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishslashga yo'naltirildi.

Bundan tashqari, tergov faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyati yanada kuchaytirildi. Tergov faoliyatini nazorat qilish, axborot

etgan holda, aholi uchun uyidan turib, tun-u kun to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish instituti isloh qilindi va jinoyat haqidagi xabarlarni ro'yxatga olish jarayoni to'liq raqamlashtirildi.

Taraqqiyot strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 30-yanvardagi «O'zbekiston – 2030 strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni bilan tasdiqlangan amaliy tadbirlar rejasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, avtomobil yo'llarida transport vositalarining erkin va xavfsiz harakatlanishini ta'minlash, Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlaridagi istirohat bog'lari, xiyobonlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatini takomillashtirish kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliy tadbirlar rejasida ishni sudga qadar yuritish bosqichiga axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash belgilangan bo'lib, unga ko'ra, protsessual harakatlarni avtomatik qayd etish, ma'lumotlarni onlayn olish imkonini yaratish, ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelishining oldini olish, ish materiallarini onlayn uzatish imkonini yaratish, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanan, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishning yagona hisobini yuritish, shuningdek, sud ekspertizasini onlayn tayinlash mexanizmlari joriy etiladi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, taraqqiyot strategiyasi doimiy harakatlar hamda izlanishlar orqali muammolarni hal etishning muhim manbayi bo'lib xizmat qilmoqda va barchamizni yanada mahobatliroq vazifalarni hal etishga boshlamoqda.

**Bahrom SAIDOV,
IV Akademiyasi Magistratura
boshlig'i, polkovnik,
professor.**



Shuningdek unda jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shu jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, «E-patrul» tizimi joriy etildi. Endilikda tekshirish uchun shaxsni ichki ishlar bo'limiga olib borish amaliyotidan voz kechildi va barcha ma'lumotlarni joyida tekshirish, patrul-post xizmati xodimlarining faoliyatini bodikamera yordamida nazorat qilish yo'lga qo'yildi. Patrul xizmatini bosqichma-bosqich avto va motopatrul shakliga o'tkazish orqali naryadlar mobilligiga erishilib, hodisa joyiga tezkorlik bilan yetib borish ta'minlanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda, yo'l

texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan yangi turdag'i jinoyatlar, shu jumladan, kiberjinoyatlarni fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati isloh qilindi, qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda ushbu jinoyatlariga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini himoya qilishning samaradorligi yanada oshirildi.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlanib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimi tubdan isloh qilindi, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalilmoqda. Mu-rojaatlar bilan ishslash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skanner
qiling.



PROFILAKTIKA XIZMATI

OSOYISHTALIKNI SAQLASH – BURCHIMIZ

Kosonsoy tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektorlari tomonidan yil boshidan bu-yon jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash borasida bir qator tezkor-profilaktik hamda ogohlantiruv tadbirlari amalga oshirildi. Xodimlar «Xavfsiz hovli», «Nazorat», «Turush», «Qoradori», «Qidiruv» va boshqa tadbirlarda ishtirok etib, jinoyatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 foizga kamayishiga erishildi. Voyaga yetmaganlar, ayollar tomonidan jinoyat so-dir etilishiga yo'l qo'yilmagan.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari tashabbusi bilan 2 ta fohishaxona saqlash va qo'shmachilik, 1 ta qimor-xona tashkil etish jinoyatlari aniqlandi, 1 ta bosqinchilik, 2 ta o'g'rilik jinoya-tining «issiq izida» fosh etilishiga erishildi. Tergov harakatlaridan yashirinib



yurgan qidiruvdagi shaxs ushlandi.

Yaxshi ko'rsatkichlarga erisha-yotgan profilaktika inspektorlari – podpolkovnik Shavkatjon Pranov, mayor A'zamjon Abdurazaqov, katta leytenant Mirjalol Vahobjonov jinoyatchilik va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish borasida mahalla yettiligi bilan birlgilikda aholi o'rta-

sida «xonadonbay» targ'ibot ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Xususan, joriy yilning 3-fevral kuni soat taxminan 01:30 larda tuman hududida tungi xizmatga jalb etilgan profilaktika inspektorlari D.Qodirov hamda R.Ahmadaliyev tomonidan «Kosonsoy – To'raqo'r-g'on» yo'lida oq rangli «Nexia-3»

rusumli davlat raqam belgisi bo'l-magan avtomashina to'xtatib tekshirilganda, salonda 6 nafr shubhali shaxs borligi aniqlandi.

Ushbu shaxslarning yashash manzillari surishtirilganda, ular Farg'ona viloyatidan ekanliklari, bu yerda yashovchi tanishlarining qarzi borligi, shuni olgani kelganliklarini aytishsada, besaranjom holatlari, olazarak boqayotgan ko'zlar yolg'onlarini fosh etib turardi. Avtomashina ko'zdan kechirilganda, 2 dona televizor, 5 dona qora rangli niqob, 6 juft rezina qo'lqop, skoch o'rami va xo'jalik pi-chog'i borligi aniqlandi. Olib borilgan tezkor-qidiruv va surishtiruv ishlari davomida ushbu avtomashinaning davlat raqami yechib olinib, tuman hududida bosqinchilik jinoyati sodir etib, voqeа joyidan yashirinayotgan shaxslar ekanligi ma'lum bo'ladi.

**Sherzod RAJABOV,
Kosonsoy tumani IIB JXX HPB
boshligi'i, podpolkovnik.
Namangan viloyati.**

ХИЗМАТ ФИДОЙИСИ

FIDOVILIK MAKTABIDA YETISHGAN INSON

Inson borki, o'z hayoti davomida qaysi kasbni tanlamasin, el xizmatini yuksak mas'uliyat bilan ado etish orqali yurti oldidagi burchini bajarishga intiladi. Ana shunday fidoyilardan biri Surxondaryo viloyati IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi bosh inspektori, podpolkovnik Anvarjon Mirzayevdir.

A.Mirzayev ichki ishlar organ-iaridagi faoliyatini 2005-yili Termiz tumanidagi migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limida boshla-gan. Shundan buyon qariyb yigirma yil mobaynida ushbu mas'uliyatlari va bir paytning o'zida sharafli sohada sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. Bu yillardavomida u Oltinsoy hamda Termiz tumani ichki ishlar bo'limlarida samarali faoliyat ko'rsatib, hamkasb-lari orasida hurmat-e'tibor qozondi.

– Kasbimiz doimiy ravishda xalq bilan ishlashni talab qildi, – deydi podpolkovnik Anvarjon Mirzayev. – Biz har kuni turli xil odamlar bilan mu-loqotda bo'lamic. Ular bilan samimiy, muloyim va insoniy munosabatda bo'-lishga harakat qilaman. Chunki har bir fuqaro men uchun o'z yaqinlarimdek qadrli. Shu bois odamlarning ko'nglini qoldirmaslikka harakat qildim. Chunki inson nafaqat yaxshi amali bilan, balki o'zining xush muomalasi, odamgar-chiligi bilan elning duosini olishga muvaffaq bo'ldi. Ko'pning duosi esa kishini faqat yuksaltiradi.

Insonparvarlik, kamtarlik va xalq-qa xizmat qilishdek yuksak fazilatlar uning mehnat faoliyatida ham, ha-yotda ham doimo yo'ldosh bo'lib



kelmoqda. Anvarjon Mirzayev nafaqat kasbda, balki oilada ham namuna. U uch o'g'il va bir qizning mehribon otasi sifatida ularning tarbiyasiga katta e'tibor qaratadi.

Anvarjon Mirzayevni yaxshi taniy-diganlar uni kamtarin, o'z ishiga sid-qidildan yondashadigan, oddiylik va odamgarchilikni ustuvor qo'yadigan inson sifatida biladi. Uning samarali mehnati, xalq orasidagi obro'-e'tibori bugungi kundagi muvaffaqiyatlarining eng muhim povdevori hisoblanadi. Lavhamiz qahramoni 2021-yilda Ichki ishlar vazirligining III darajali «Ichki ishlar organlarida benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Darhaqiqat, xalq duosi bilan yetishgan, odamlar roziligidini eng katta mukofot deb bilgan bunday fidoyi insonlar bor ekan, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam ustuni doimo saqlanib golaveradi.

**Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.**

Surxondaryo viloyati.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

QO'RQQANDAN HOVLIQQAN YOMON

Ko'kdala tumanida yashov-chi U.N. ko'zlagan manziliga tez yetib borishning antiqa yo'lini topdi. U Chiroqchi shahri tomon yo'lga chiqarkan, o'z boshqaruvidagi «Cobalt» avto-mashinasining davlat raqamini yechib oldi. Bu katta tezlikda va, albatta, yo'ldagi radarlarni chetlab o'tgan holda harakatla-nishni «ta'minladi».

Chiroqchi shahriga yaqinlash-ganida ustomon haydovchining ro'-parasidan tuman IIB YHXB xodimlari chiqib qoldi. Mashina to'xtatilib, jarima maydonchasiga qo'yildi.

Qo'rqqandan hovliqqan yomon, deganlaridek, vaziyat bunday bo'-lishini kutmagan haydovchi tezda tuman IIB YHXBning ma'muriy

huquqbazarlik materiallarini ko'rib chiqish bo'yicha inspektori, serjant Asliddin Murodovga uchrashdi. Serjantga rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnomani bekor qilish va avtomashinasini jarima maydon-chasidan chiqarib berish evaziga 1 million so'm pora taklif qildi. Pora berish jinoyat ekani, bu xatti-hara-kati jinoiy javobgarlikka sabab bo'-lishi to'g'risidagi ogohlantirishlarga qaramay, o'z fikridan qaytmadi...

Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda U.N. 680 ming so'm pulni xodimga berayotgan vaqtida ash-yoviy dalillar bilan ushlandi. Endi haydovchi bu qilmishi uchun ham qonun oldida javob berishi tayin.

O'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.





Урок духовности и просвещения



Сегодня, в обновленных конституционно-правовых условиях, логическим продолжением масштабных реформ стала Стратегия развития Нового Узбекистана, провозгласившая главным принципом «Государство для человека». Этот основополагающий тезис отражает растущее чувство сопричастности граждан к происходящим в стране процессам, ведь Стратегия вобрала в себя многочисленные предложения, поступившие от представителей самых разных слоев населения в ходе широкого общественного обсуждения.

Особый интерес общественности вызвали Указ Президента Республики Узбекистан о Стратегии «Узбекистан-2030» и Постановление главы государства «О мерах по качественной и своевременной реализации Стратегии «Узбекистан-2030» в 2023 году». Эти документы не просто определяют ключевые направления дальнейшего развития страны, но и знаменуют собой новый этап в реализации широкомасштабных реформ, учитывая произошедшие конституционные изменения и состоявшиеся президентские выборы.

Стратегия «Узбекистан-2030» представляет собой комплексный план, нацеленный на достижение качественно нового уровня жизни населения, обеспечение устойчивого экономического роста, развитие социальной сферы, укрепление правового государства и повышение международного авторитета страны. Принцип «Государство для человека» пронизывает все аспекты Стратегии, определяя приоритетность интересов граждан при принятии

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В ДЕЙСТВИИ

Новый Узбекистан уверенно смотрит в будущее, опираясь на прочный фундамент преобразований, заложенный Стратегией действий на 2017-2021 годы. Этот пятилетний период стал временем глубоких реформ, охвативших все сферы государственной и общественной жизни. Принятие около 300 законов и более четырех тысяч указов и постановлений главы государства стало ярким свидетельством решимости страны к кардинальным переменам.

органов, усилию борьбы с коррупцией и обеспечению соблюдения прав и свобод граждан.

Примером эффективной реализации Стратегии действий на 2017-2021 годы может служить значительное улучшение деловой среды в стране, что нашло отражение в повышении позиций Узбекистана в международных рейтингах. Также следует отметить активное развитие инфраструктуры, включая строительство новых дорог, мостов, объектов энергетики и социальной сферы.

Стратегия «Узбекистан-2030» не просто продолжает начатые реформы, но и выводит их на качественно новый уровень, учитывая мнение и потребности граждан. Она является ярким свидетельством стремления Узбекистана построить сильное, процветающее и ориентированное на человека государство. Утверждение конкретных мер по реализации Стратегии в 2023 году демонстрирует решимость руководства страны в достижении поставленных целей и обеспечении благополучия каждого гражданина Нового Узбекистана.

любых решений и осуществлении реформ.

Примером практической реализации этого принципа может служить усиление социальной защиты населения. В рамках Стратегии «Узбекистан-2030» предусмотрено расширение программ адресной социальной помощи, увеличение размеров пенсий и пособий, создание новых рабочих мест и повышение квалификации трудовых ресурсов. Особое внимание уделяется поддержке уязвимых слоев населения, включая малообеспеченные семьи, лиц с инвалидностью и пожилых граждан.

Другим важным направлением является модернизация системы образования и здравоохранения. Стратегия предусматривает повышение качества образования на всех уровнях, внедрение современных методик обучения, укрепление материально-технической базы образовательных учреждений. В сфере здравоохранения акцент делается на повышении доступности и качества медицинских услуг, развитии первичной медико-санитарной помощи, профилактике заболеваний и внедрении цифровых технологий.

Развитие предпринимательства и создание благоприятного инвестиционного климата также являются ключевыми элементами Стратегии «Узбекистан-2030». Предпринимаются активные меры

по снижению административных барьеров, упрощению процедур ведения бизнеса, защите прав инвесторов и стимулированию

ЧТО УЖЕ СДЕЛАНО?

- ✓ Внедрена цифровая система «Мадлумотнома» – справки, госуслуги, записи и жалобы доступны онлайн
- ✓ Создан Фонд поддержки женщин и молодежи
- ✓ Привлечены десятки миллиардов долларов инвестиций в инфраструктуру, транспорт и энергетику
- ✓ Построено более 300 новых школ и медицинских учреждений
- ✓ Запущены программы «Янги Узбекистон» и «Обод махала» – благоустройство территорий, обеспечение жильем, развитие локальной экономики
- ✓ Голос народа – важнейший индикатор
- ✓ Примечательно, что при формировании Стратегии активно использовались общественные обсуждения. Через платформу Mening Fikrim (Мое мнение) были собраны предложения от тысяч граждан. Такой подход не только укрепляет доверие, но и делает реформы живыми и приближенными к реальным потребностям населения.

инновационной деятельности. Это способствует созданию новых рабочих мест, росту экономики и повышению благосостояния населения.

Нельзя не отметить и укрепление институтов правового государства и обеспечение верховенства закона. В рамках Стратегии продолжается работа по реформированию судебной системы, повышению прозрачности деятельности государственных

«Узбекистан-2030» – не просто дорожная карта, а отражение национального стремления к свободе, развитию и справедливости. Преобразования, начатые сегодня, уже дают результаты. Но главное – страна формирует новое поколение граждан, уверенных в своем будущем и готовых принимать участие в жизни общества.

**Азиза БОХОДИРОВА,
майор.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

 ИНСОН – АЗИЗ, ХОТИРА – МУҚАДДАС

ЖАСОРАТ ҲАМИША МАНГУ

Инсон умри қанча яшаганлиги билан эмас, қандай яшаганлиги билан ўлчанади. Умрлар бор сокин, умрлар бор кимнингдир ташвишига елка тутиб яшайди. Умрлар бор ҳаётини Ватан, эл-юрт манфаатига баҳшида этади. Орамизда шундай одамлар борки, улар амалга оширган ишлар асрларга татигуликдир. Исматулла Ибодов ҳам ана шундай инсонлар сирасига киради.

Исматулла Ибодов 1961 йил Самарқанд вилояти Тойлоқ туманида туғилган. 1985 йил Киев, 1990 йил Тошкент олий милиция мактабини тамомлабын. Юрагига касбга садоқат, фидойилик сингари чин инсоний фазилатларни түккан ходим 1991 йил 18 август куни қуролланган жиноятчаниң күлгө олиш чөфида ўқотар қуролдан оғир яраланиб, воқеа жойида ҳалок бўлади.

Самарқанд вилояти ИИБ маҳсус бўлим бошлиғи, катта лейтенант Исматулла Ибодов ички ишлар оғанларида 8 йил хизмат қилган бўлса-да, шу давр ичида тизимда ўзидан муносиб из қолдириб кетди.

– Биз бир маҳаллада улғайғанмиз, – дея хотирлайди турмуш ўртоғи Хуршида Исмоилова. – Турмуш ўртоғим касбини жуда яхши кўрарди. Ўша пайтларда машиналар кам, узоқ масофага қатнаб ишларди. Хизматдан чарчаб келса ҳам, қизларига вақт ажратар, уларга меҳрибон ота эди. Доим ўн ўғилга ҳам алмашмайман қизларимни, дерди.

Учинчи қизим отасини кўришга ҳам ултумади. Ҳозиргача «Дадамни кўрмаганман», деб армон қиласи. Қизларим, күёвларим хизмат либосида кириб келишса, турмуш ўртоғимни кўргандек бўламан.

Ватан дахлсизлиги учун курашган қахрамонлар номи барҳаёт. Мард ўғлонларнинг жасорати, фидойилиги ҳеч қачон унтилмайди. Исматулла Ибодов ўлимидан сўнг, 1992 йилда Президент фармонига асосан, «Жасорат» медали билан тақдирланди. Шунингдек, номини абадийлаштириш учун ўзи таҳсил олган Тойлоқ туманидаги З-умумтальим мактабига унинг номи берилиб, бюсти ўрнатилди.

Исматулла Ибодовнинг фарзандлари ота изидан боришиди. Уч опа-сингил Сабина, Анжелика, Чарос ҳозирда ички ишлар органла-



рида хизмат қилишмоқда. Капитан Сабина Ибодова ИИБ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти Тибиёт бўлимида шифокор. Унинг турмуш ўртоғи Зафар Очилов истеъфодаги подполковник. Оиланинг уртанчаси подполковник Анжелика Ибодова вилоят ИИБ ҳузурида ги Тергов бошқармасида ўта муҳим топшириқлар бўйича терговчи, унинг турмуш

ўртоғи подполковник Умид Исокулов ҳам ушбу хизматда фаолият юритади. Кенжа қиз Чарос Ибодова Самарқанд вилояти ИИБ Тибиёт поликлиникасида шифокор.

Ватан – муқаддас, унинг тинчлиги, осойишталиги учун жонидан воз кечган ўғлонлар ҳеч қачон унтилмайди. Исматулла Ибодовнинг жасорати ёш авлод учун ибрат мактабидир. Бу ҳақда ёш авлодга кўпроқ сўзлаб бериш лозим. Шунда келажак авлод Ватан озодлиги, фаровон ҳаёт, осуда турмушни асрараш, юртни севиш зарурлигини теранрок англайди.

Умид МАМАДАЛИЕВА.
Самарқанд вилояти.



Уруш бошлангач, ҳаётимиз янада оғирлашди. Эркаклар урушга кетди. Қишлоқда фақат хотин-қизлар қолдик. Фронторти меҳнати аввалидан-да оғир кечди. Битта нон учун эртадан кечгача ишлайман, денг. Ахир,

Уйчи туманининг «Эзгулик» маҳалласида умргузаронлик қилаётган Адашон момо Раҳмонова бу йил умрининг 100 баҳорини қаршилади. Табаррук онахонга фарзандлари Абдубанно, Қандолатхон, 15 невара, 23 чевара, 16 эвара гамхўрлик қиласи.

ЖАСОРАТ ҲАМИША МАНГУ



шу бир дона шапармак нонга онам иккимен билин кўз тикиб ўтиришади. Даладаги ярим коса ёвғон шўрва учун катта-ю кичик жон бергудек ишлайди. Ў-ў, ўша кунларда тахта кунжарани ивитиб еган пайтларимиз бўлган. Ҳосил пишиши билан бари йиғиштирилиб, даладан тўғри фронтга жўнатиларди.

Қишлоғимизга уруш вайрон қилган ўлкалардан эвакуация қилинган турли миллат болалари билан ярим курмак, ярим зогора нонимизни бирга баҳам кўрганмиз. Урушдан кейин фронтдан ярадор бўлиб қайтган Абдуғани акага турмушга чиқдим. У киши қишлоқдаги биринчи ўқитувчилардан эди. Уч фарзандли бўлганимда онам ҳам вафот этди. Иккимен билин ҳам менга омонат қолди.

Шукрки, фарзандларимиз дадасига тортишди. Хат-саводли, ўқимишли бўлиб улғайишди. Абдубанно фермерликдан пенсияга чиқди. Абдулхомид ўғлим Наманган давлат университети доценти эди, умри қисқа экан... Охирати обод бўлсин. Қизим Қандолат ҳам ўқитувчи. Невараларим олий маълумотли ўқитувчи ва шифокор. Уларнинг илмга чанқоқлигига, тинимсиз излашилларига ҳавас қиласан.

Бир аср яшаб қўйибман. Мен қартайдим, вақт қаримади. Замон янгиланиб, омон-омон кунларга етдик. Тинч-осойишта, обод ва фаровон ҳурлик замонида ҳамма нарса чиройли. Шундоқ кунларни кўриш, шундоқ замонда яшаш насиб этганига шукур қиласан. Аттанг, аттанг, бу кунларга етгандардан етмаганлар кўп...

Илоҳим, ўртимизга асло кўз тегмасин, тинчлигимиз бардавом бўлсин!

Табаррук момонинг нур балқан юзларида, тийрак кўзларида ҳаётга муҳаббат ва чексиз шукроналик ҳиссини кўрдик. Умрингиз янада узоқ, дуоларингиз ижобат бўлсин, дея хайларашдик.

Фотимахон ТОШМАТОВА,
журналист.

Наманган вилояти.

 ОТАМ БИЛАН ФАХРЛАНАМАН

ШИЖОАТДА БИЗДАН ОЛДИНДА

Болалик хотираларим ҳақида ўйласам, меҳри талабчанлик билан йўғилган, қатъиятли ва иродали инсон, ҳаётда ўз ўрнимни топишимга астойдил кўмак берган падари бузрукворимдан миннатдор бўламан. Ота изидан бориб, ички ишлар органи соҳасида самарали фаолият олиб бораётган бўлсам-да, шижоат ва гайратда отам, истеъфодаги майор Янгиқўрғон тумани ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси Раҳмонали Жакбаров менга ўrnak бўлиб келаётганидан қувониб кетаман.

Бу йил 75 ёшни қарши олаётган отажоним туман ички ишлар бўлими раҳбариятига Фахрийлар кенгashi раиси сифатида мана 20 йилдан бери фахрийларни ижтимоий қўллаб-кувватлаш ишларига яқиндан ёрдам бериб келмоқда. Тўғриси, отам айни дам олиб, ҳузурхаловатда яшайдиган даврида ҳам куйинчаклик билан елиб-югуришлари унча-мунча одамнинг қўлидан келмайди. Уларга қараб, кўпчилик нинг дарди яшайдиган ин-

интизоми айнича менга қаратилган бўлиб, юқори синфга ўтган пайтимдан бошлаб туман марказидаги 10-мактабга ҳар куни пиёда югуриб кетардим. Дарслардан сўнг кўшимча машғулотларда тарих, математика фанларини чуқур ўзлаштириш вазифаси ҳам бор эди. Ҳар куни туман марказида дадамнинг ишхонасиға кириб ўтардим. Форманинг салобати ички ишлар ходимларига ўзгача кўрк бериб тураг, уларни ҳавас билан кузатардим. Касбга меҳр



сонлар ўзи бошқача бўлар экан-да, деган фикр ўтади хаёлимдан.

Отамнинг ички ишлар органларидаги хизмат фаолияти ҳарбий хизматдан сўнг, 1974 йилда Давлатобод тумани ИИБ Қўриқлаш бўлинмасидан бошланган. Икки йилдан сўнг Фарғонадаги милиция мактабида малака ошириб қайтади. Шундан кейин Намангандаги шаҳар Ички ишлар бўлимида автомототранспортлар бўйича бўлим командири бўлиб ишлади. Бу орада Намангандаги давлат университетининг тарих-хукуқшунослик факультетининг сиртқи бўлимида ҳам ҳужжат топшириб, талабалик ва ходимликни ёнма-ён олиб боради. 1981–1998 йилларда Янгиқўрғон тумани ИИБда турли лавозимларда профилактика хизмати, вояга етмаганлар бўлимида фаолият олиб борган. 1998 йилдан 2002 йилгacha Косонсой тумани ИИБ бошлигининг ўринbosari лавозимида ишлаган. 2003 йилда пенсияга кузатилган.

Отамнинг айтишича, устози, ички ишлар органи тизимида раҳбарлик лавозимларида ишлаган раҳматли Мехмонжон Холмирзаевга ҳавас қилиб, менга унинг исмини қўйишган экан. Оиласда 5 фарзандмиз, кенжа бўлсам-да, ортиқча эркалатишмаган. Отамнинг темир

болаликдан бошлангани учунми, спорт тўғаракларига қатнардим, ўз устимда ишлаб, ўзимга бўлган ишончни мустаҳкамлардим.

«Инсонни куч эмас, ақл бошқариши керак», деган насиҳатлари ишда ҳам, шахсий ҳаётда ҳам асқатяпти. Ота-онамнинг тарбия масаласидаги ёндашуви, отамнинг қатъияти, талабчанлиги, онам Ойдина Ҳожиакбарованинг меҳрибонлиги, жонқуярлиги биз фарзандлар камолида муҳим ўрин тутган. Ҳаётда ҳаммамиз ўз ўрнимизни топиб, олий маълумот олдик. Акам банк ходими, катта опам ҳамшира, ўртанчаси фарзанд тарбияси билан банд, кичиги ўқитувчилик соҳасида фаолият олиб бормоқда.

Отам эндиликда набиралари учун ҳам жонқуяр бобо сифатида уларнинг ўқиши, қизиқишиларини сўраб-сурештиради. Уларга нимаики керак бўлса, барчасини уддалашга ҳаракат қиласди.

Фарзандлар ҳаётидаги муваффақиятлар асосида ота-она орзулари, дуолари мужассам. Бугун мен устозим, яқин маслаҳатчим – отам билан ҳақли равишда фахрланаман.

**Мехмонали ҲОЖАКБАРОВ,
Чуст тумани ИИБ бошлигининг
ӯринbosari, майор.**



Фарғона вилоятининг Ёзёвон туманидаги Қоратепа қишлоғида истиқомат қилувчи ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник Бўрибой Омонзода қаламдан қадр топган фидойи журналистлардан бири саналади.

ЎЗИМИЗНИНГ БЎРИБОЙ



Болаликдан матбуотга меҳр кўйган лавҳамиз қаҳрамони ўзи туғилиб ўсган Ёзёвон тумани ҳоқимлигининг «Марказий Фарғона» газетасида дастлаб жамоатчи мухбир, кейинчалик мухбир, бўлим мудири вазифаларида ишлаб, журналистика оламига дадил қадамлар билан кириб келган.

1994 йилда Ички ишлар вазirligining «Постда» ва «На посту» газеталарининг Фарғона водийси бўйича ўз мухбир вазифасига ишга олингач, Бўрибой Омонзоданинг ҳаёти ва ижодида туб бурилиш рўй берди.

Вазирилик нашрида мухбир бўлиб ишлаб, ички ишлар органлари фаолиятига оид долзарб мақолалари билан танилган журналист Фарғона вилояти ИИБ Матбуот хизмати ва Шахсий таркиб билан ишлаш хизматида масъул лавозимларда самарали фаолият олиб борди.

2015 йилда вилоят ИИБ Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва юридик таъминлаш бўлинмаси оммавий ахборот воситалари билан алоқа гурӯҳи катта инспектори вазифасидан пенсияга қиҳди.

Ўзининг ҳуқуқий мавзудаги долзарб мақолалари ва телекўрсатувлари билан яхши танилган Бўрибой Омонзода бугун ҳам элорту хизматидан тўхтагани ўйк.

Бир неча йил Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги Фарғона вилоят бошқармаси бош мутахассиси вазифасида фаолият кўрсатди.

Ҳозирда ҳам матбуот соҳасида фаолиятини давом эттироқда.

– Журналистика ҳаётимнинг мазмунига айланган, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Ҳеч эсимдан чиқмайди, биринчи мақоламни ёзиб, шоир Сидик

Мўминнинг олдига боргандим. Устоз эса мақоламни озигина таҳрирлаб, газетага чиқишига ёрдам берган. Шундан сўнг матбуотга меҳрим кучайиб, шу соҳада ўқидим, газеталарда ижод қилдим, эл-юргита танилдим. Ички ишлар органларида ҳам айнан шу соҳа бўйича фаолият олиб бориб, матбуот хизматини бошқардим.

Бу ишда эса подполковник Мұхаммадрасул Кимсанбоев менга устозлик қилди. Бугун ҳам матбуотнинг қайноқ қозонидаман. Биз танланган касб аслида осон эмас. Унинг машаққатларини енгиг ўтиш учун ижодкор пухта билимга эга, ҳалол ва виждонли бўлиши керак. Бир пайтлар туман газетасида фаолият олиб борган Умаржон Исмоилов, Алишер Тошқулов, Азимжон Худойқулов, Маликжон Бойматов, Одилжон Жалолов каби устозларим менга моҳир журналист бўлиш учун нималарга эътибор бериш кераклигини ўргатишган эди. Бугун эса устозларимдан олган билимларимни, тажрибаларимни соҳага кириб келаётган ёш журналистларга баҳоли қудрат ўргатиб келяпман.

Бўрибой Омонзода ички ишлар органлари тархи ва бугунги фаолиятини яхши биладиган, ҳуқуқий мавзуларда ёзишнинг ҳадисини олган журналист, – дейди Фарғона вилояти ИИБ Ахборот хизмати раҳбари, капитан Исмоилжон Шарипов. – Мен ҳам устоздан жуда кўп маслаҳатлар сўраб турман. Билмаганларимизни ўргатади, зарур тавсиялар беради.

Тажрибали журналист баҳтиёр оила соҳиби ҳам саналади. Турмуш ўртоғи Ўғилхон Раҳмонова билан ҳамжиҳатлика 4 нафар фарзандни намунали инсонлар қилиб вояга етказишиди.

**Абдувосит СИДИКОВ,
ӯз мухбири.**
Фарғона вилояти.

 Ветераны – наша гордость



Выбор профессии был не случайен. Большое влияние на него оказал отец – Жаббор Жамолов, ветеран Великой Отечественной войны, посвятивший послевоенные годы службе в органах внут-

ВСЕГДА ВО ВНИМАНИИ

За плечами подполковника в отставке Шавката Жамолова – 35 лет безупречной службы в органах внутренних дел. За годы работы он раскрыл десятки тяжких преступлений, в том числе убийств и разбойных нападений. Последние пять лет службы занимал должность заместителя начальника уголовного розыска и руководил отделом по имущественным преступлениям УВД Самаркандской области.

ренних дел. В 1973 году он завершил службу, оставив после себя заслуженную репутацию честного и принципиального сотрудника.

– Нам довелось работать в одни из самых сложных лет – времена криминальных авторитетов, «воров в законе» и организованного бандитизма, – рассказывает Шавкат Жамолов. – В моей практике был случай, когда группа из восьми вооруженных преступников совершила нападение на дом предпринимателя. В ходе следствия удалось доказать их причастность к девяти другим разбойным нападениям. Тогда их

осудили по статье «бандитизм», которая сегодня уже не применяется. Это были непростые времена – преступления отличались жестокостью, а преступные группировки действовали по принципу «нет человека – нет проблемы».

За годы службы Жамолов прошел путь от инспектора до начальника отделения по борьбе с организованной преступностью, а затем – начальника отдела по имущественным преступлениям и заместителя начальника уголовного розыска УВД области.

Выходя в отставку, он не прекратил активной деятельности.

Сегодня Шавкат Жамолов – член Совета ветеранов УВД области. Он делится опытом с молодыми сотрудниками, участвует в наставнических встречах, проводит лекции и семинары, рассказывает реальные истории из практики, акцентируя внимание на тонкостях профессии и профессиональной этике.

– Молодым сотрудникам важно понимать: успех приходит только с опытом и верностью делу. Не бывает мелочей в работе оперативника, – подчеркивает он.

Соб. корр.

Самаркандская область.

 Тема для размышления

ВРЕД УЛИЧНЫХ ГОНКОК И МОТО-ГОНОК: ЦЕНА АДРЕНАЛИНА

В последние годы уличные гонки и мото-гонки стали не только опасным развлечением, но и серьезной социальной проблемой. Громкие ревы моторов, рискованные маневры и пренебрежение Правилами дорожного движения – эти атрибуты нелегальных гонок встречаются на улицах крупных городов все чаще. Что движет людьми, рисующими своей жизнью и безопасностью окружающих, и какие меры предпринимают органы внутренних дел для борьбы с этим явлением?

ПОСЛЕДСТВИЯ ДЛЯ ОБЩЕСТВА

Главная проблема нелегальных гонок заключается в их непредсказуемости и отсутствии контроля. Гонщики подвергают опас-

ности не только себя, но и случайных прохожих, автомобилистов и жильцов прилегающих территорий. Гибель людей, нанесение тяжких телесных повреждений, порча городского



имущества – лишь часть последствий безрассудного поведения на дороге.

Помимо непосредственного вреда, гонки оказывают негативное влияние на социальный климат. Жители районов, где регулярно проводятся нелегальные заезды, сталкиваются с шумовым загрязнением и чувством постоянной тревоги. Для подростков, которые видят в гонщиках пример силы и независимости, формируется искаженное представление о нормах поведения.

МЕРЫ БОРЬБЫ С НАРУШИТЕЛЯМИ

Борьба с уличными гонками требует комплексного подхода со стороны правоохранительных органов. Сотрудники ОВД активно патрулируют участки, наиболее подверженные нелегальным заездам, используют системы видеонаблюдения и оперативные группы для быстрого реагирования. Организуются специальные рейды с целью выявления и задержания гонщиков.

Кроме того, особое внимание уделяется профилактике: проводятся встречи с молодежью, разъяснительные беседы о правовых последствиях и демонстрация реальных случаев трагедий, связанных с нелегальными гонками.

Несмотря на все усилия правоохранительных органов, проблема уличных гонок остается актуальной. Возможно, более эффективным будет не только ужесточение наказаний, но и системная работа с молодежью, популяризация безопасных альтернатив и поддержка спортивных инициатив. Важно, чтобы у любителей скорости был выбор – адреналин без риска для жизни и безопасности окружающих.

Подготовила Юлия ЧАЙКИНА.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

«НУРЛИ МАСКАН» ФАОЛИЯТИДАН

КЕЛАЖАККА ПОРЛОҚ УМИДЛАР САРИ

Сўнгги йилларда Ички ишлар вазирлигига бириктирилган кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган «Нурли маскан» мактаб-интернатларида улкан ўзгаришлар амалга оширилди. Хусусан, Бухоро шаҳридаги 24-сонли «Нурли маскан» ихтисослаштирилган мактаб-интернатида ҳам сифатли таълим ва тарбия беришга, ўқувчиларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш ҳамда интеллектуал, жисмоний ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилди.

— Масканимизда кўшимча ўқув биноси ҳамда ошхона қурилиб, синфхоналар, компьютер хонаси, кутубхона, йиғингоҳ, спорт зали, тўграк хоналари ҳамда ётоқхона янги жиҳозлар, қолаверса, техник ва кўргазмали воситалар билан таъминланди. Бошлангич синфлар учун чет тили хонаси ҳам ташкил этилди. Қисқаси, педагоглар ҳамда ўқувчиларнинг ишлашлари, бўш вақтини мазмунли ўтказиши учун барча қулайликлар

чилари ўртасида ўтказилган фан олимпиадасининг Республика босқичида **Элшод Исматов** тарих фанидан биринчи, **Машхур Эгамова** эса она тили ва адабиёти фанидан учинчи ўринни әгаллашди. «Ёш китобхон» республика танловида ўқитувчимиз **Шамшода Ҳамдамова** 303,6 балл билан иккинчи ўринни олди ва 75 миллион сўм пул мукофотига эга бўлди.

Ютуқли ишлардан яна

миқёсида 17 та «Нурли маскан» ихтисослаштирилган мактаб-интернатларида фойдаланилмоқда. Бу ихтиrolар бошлангич таълим йўналиши ўқитувчиси Султон Султонов томонидан яратилган. У ўзининг меҳнат фаoliyati давомида кўришда нуқсони бўлган болалар учун кулаги методларни ишлаб чиқиши йўлга кўйганди. Яъни, 2020–2022 йилларда «Тифло брайл» доскасини ихтиро қилганди. Ҳозирда уни за-



муҳайё қилинди, — дейди мактаб-интернат директори Мадамин Аслонов. — Натижада эришаётган ютуқларимиз сони ортиб бормоқда. Мисол учун айтадиган бўлсак,

бири бошлангич синф ўқувчи-

ларида монавийлаштириш мақсадида янгича кўринишда яратиш устида иш олиб бормоқда ва анчагина ижобий натижаларга эришди.

2024 йилда Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги миқёсида ташкил этилган илмий-амалий халқaro анжуманда тифло брайл планшети ва тифло брайл доскасини тақдим этди ва ушбу илмий ишлари натижаси бўйича «Юрт ифтихори» ҳамда «Келажак қаноти» эсдалик нишонлари билан тақдирланди.

Қисқаси, «Нурли маскан» ихтисослаштирилган мактаб-интернатида таълим-тарбия олаётган ўқувчилар келгусида ҳаёт йўлини нурафшон этиш мақсадида яратилган барча имкониятлардан унумли фойдаланиб келишмоқда.

**Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.**

Бухоро вилояти.



24–27 марта кунлари Самарқанд шаҳрида кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатлар ўқув-

инновацион таълим воситаларидан самарали фойдаланиш методикаси бўйича қилинган ихтиrolардан бугунги кунда Республика

КАСБ ФИДОЙИСИ

БИЛИМ ВА ТАЖРИБА УЙГУНЛИГИ

Майор Анваржон Жуманов 1989 йилда Боёвут туманида туғилган. Тумандаги иқтидорли ўқувчилар лицейини тутатгач, Тошкент олий ҳарбий-техник билим юртига ўқишига кирган. Уни мувваффақиятли тамомлангач, ёш лейтенантни Сирдарёдаги 3-манзил колониясига хизматга юборишиди. Бу ерда у тезкор-қидириув хизмати катта тезкор вакили лавозимига тайинланди. Маҳкумларни тўғри йўлга йўналтириш бўйича иш ўрганди. Жиноятчиликка қарши курашнинг энг қайноқ нуқтасида тажриба ортириди.



Тезкор-қидириув хизматида суяги қотган Анваржонни 2017 йили Сирдарё вилояти ТХТБ ТҚҲ катта тезкор вакили лавозимига ўтказишиди. Бу ерда ҳам у Темир йўл тизимида жиноятчиликка қарши кураш ишини тезда ўзлаштириб олди. Бунда тажрибали устози, вилоят

ТХТБ ТҚҲ бошлиғи, майор Фуломжон Сайдовнинг ҳиссаси катта бўлди. Устози тезкор тадбирларни олиб боришида шошмасдан иш тутишни, пухта режа асосида, хушёр ақл, зийрак назар ва теран фикр билан ҳаракат қилиш зарурлигини кўп уқтиради. Анвар Жуманов эса доимо бу ўғитларга риоя этишга ҳаракат қилди. Шу тариқа, ўтган саккиз йил давомида кўплаб жиноятларни «иссиқ изида» фош этишга эришиди.

Майор Анвар Жуманов оиласи. У турмуш ўртоғи билан 2 нафар фарзандни вояга етказмоқда. Тезкор ходим оиласида ҳам баҳти, фамхўр ота.

**Абдураҳмон
МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.**
Сирдарё вилояти.

QOIDANI BUZMANG — KAYFIYATINGIZ BUZILMAYDI

**Jarima ballari yo'l harakati qoidalariiga riosa etish borasidagi mas'uliyat
va madaniyatni oshirishga qaratilgan**

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi «Yo'l harakati qoidabuzarliklari jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to'g'risida»gi 296-son qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda jarima ballari transport vositalarini boshqargan haydovchilarga nisbatan faqat Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnomalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar asosida hisoblanishi belgilangan.



Yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun jarima ballari IIV JXD YHXX yagona avtomatlashirilgan axborot tizimining «E-jarimaball» moduli orqali inson omilisiz avtomatlashirilgan tartibda hisoblab boriladi. Qaror 2025-yil 1-iyundan kuchga kiradi.

O'n ikki oy mobaynida yo'l harakati qoidalariini buzmagan transport vositalari haydovchilariga rag'batlantirish tariqasida keyingi davrda yo'l harakati qoidalariini birinchi marta buzganligi uchun birinchi jarima bali hisoblanmaydi.

Haydovchilarning oxirgi huquqbuzaqligi uchun jarima ballari hisoblangan vaqtadan boshlab, ular olti oy davomida boshqa yo'l harakati huquqbuzaqligi sodir etmagan taqdirda, uning umumiy jarima ballaridan rag'batlantirish tariqasida ikki jarima bali chegirib tashlanadi.

Agar haydovchilar jarima ballarining umumiy miqdori ikki jarima balidan kam bo'lgan taqdirda, barcha jarima ballari chegirib

tashlanadi hamda jarima ballarini hisoblash muddati birinchi huquqbuzaqligini uchun to'plagan vaqtadan yangidan boshlanadi.


Bundan tashqari, qarorda transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalariini buzganligi uchun to'plagan har bir bali haqida ularning mobil aloqa vositalariga bu haqida «SMS» xabar yuborish orqali ogohlantirish tartibining joriy etilishi hamda jarima ballari asosida transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarning elektron ma'lumotlar bazasining joriy etilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan birgalikda haydovchilarning yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun to'plagan jarima ballari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilinishini ta'minlash uchun Oliy sudning tegishli axborot tizimlariga taqdim etish tizimini yaratish belgilab qo'yilgan.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidabuzarliklari jarima ballari asosida baholash tartibi to'g'risidagi nizomning 2-ilosida MJtKning haydovchilar tomonidan sodir etilgan yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballari hisoblanishi belgilangan moddalarini va jarima ballarining miqdorlari to'g'risidagi jadval tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra:


- MJtKning 125-moddasining (Transport vositalaridan foydalanish qoidalariini buzish) 3-qismi – **0,3 ball**, 5-qismi – **1 ball**;
- 126-moddasining (ko'zgusimon va (yoki) tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) oynali, shuningdek, tevarak-atrofni ko'rishni cheklaydigan qoplalami transport vositalaridan foydalanish) 1-qismi – **0,5 ball**, 2-qismi – **1 ball**;
- 127-moddasining (Transport vositalarining tovush chiqaruvchi, yorituvchi va boshqa qurilmalaridan foydalanish, ularni o'rnatish qoidalariini buzish) 1-qismi – **0,2 ball**;
- 128³-moddasining (Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi) 1-qismi – **0,5 ball**, 2-qismi – **1 ball**, 3-qismi – **1,5 ball**, 4-qismi – **2 ball**;
- 128⁴-moddasining (Transport vositalari haydovchilarining sveto-forning taqiqlovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo'ysunmasdan to'xtash chizig'ini bosib kirishi va o'tishi) 2-qismi – **1 ball**;
- 128⁵-moddasining (Transport vositalari haydovchilarining xalaqit berishi yoki avariya holatini yuzaga keltirishi, yo'Ining qarama-qarshi harakatlanish uchun mo'ljallangan tomoniga yoki bo'lagiga chiqishi) 1-qismi – **0,5 ball**, 2-qismi – **1 ball**;
- 128⁶-moddasi (Transport vositalari haydovchilarining to'xtash yoki to'xtab turish qoidalari buzishi) – **0,2 ball**;
- 128⁸-moddasining (Transport vositasida odam tashish qoidalari buzish) 1-qismi – **0,3 ball**, 2-qismi – **0,5 ball**;
- 128⁹-moddasi (Transport vositalarini quvib o'tish qoidalari buzish) – **1 ball**;
- 129-moddasi (Transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi guruh bo'lib harakat qilishda qatnashishi) – **1,5 ball**;
- 130-moddasi (Transport vositalari haydovchilarining temiryo'Ining o'tish joylaridan o'tish qoidalari buzishi) – **1 ball**;
- 137-moddasi (Yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolish) – **2 ball** jarima ballari belgilangan.

Mazkur qaror mamlakatimizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimi takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda yo'l-transport hodisalarining oldini olish orqali fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.



*Inson o'ziga-o'zi bo'ysunishni
va o'z qarorlariga itoat qilishni
o'rganmog'i lozim.*

SITSERON.



■ Республика Каракалпакстан


«СОРВАВШАЯСЯ ЗВЕЗДА» МУЙНАКА

В Муйнакском районе старожилы помнят времена, когда в местном порту качались на волнах корабли, а рыболовецкие суда возвращались с богатым уловом. В те годы здесь работали перерабатывающие предприятия, кипела жизнь. Сегодня Муйнак ассоциируется с пустыней, где под палящим солнцем застыла флотилия островов кораблей – немые свидетели былого величия Аральского моря.

Однако есть в районе достопримечательность, которая стала его визитной карточкой и хранит память о событиях, изменивших судьбы людей и целого края. Это стела «Сорвавшаяся звезда», устремленная ввысь, напоминающая о трагедии Второй мировой войны и о тех, кто не вернулся домой.

Военные годы для Муйнака стали временем тяжелых испытаний. Именно отсюда отправлялись на фронт бойцы со всего Узбекистана – сначала морем до Аральска в Казахстане, а затем эшелонами на передовую. В 1941 году на войну из Муйнака ушли отец и сын. Их провожала женщина по имени Оксари, оставаясь в надежде на скорое возвращение близких. Но вскоре пришла похоронка на мужа, а о сыне известий не было даже после Великой Победы.

Оксари не смирилась с утратой. Она верила, что сын вернется, и в течение 40 лет ежедневно приходила в порт, глядываясь в даль, словно пытаясь увидеть знакомый силуэт на горизонте. В 1970-е годы, когда море начало



отступать, было решено перенести порт ближе к воде. Но Оксари умоляла не демонтировать старый причал: «Мой сын на войну отплыл отсюда, сюда же должен вернуться».

История женщины тронула сердца многих. Второй секретарь Муйнакского райкома партии Абдикерим Тлеуов, проникшись ее верой и отчаянием, выступил с инициативой установить памят-

ник в честь погибших участников войны. Так появилась стела «Сорвавшаяся звезда», символизирующая надежду на возвращение ушедших солдат.

– Стела напоминает о тех временах, когда Муйнак был живым и многолюдным портом, – рассказывает экскурсовод Октябрь Доспанов. – К 80-летию Великой Победы ее отремонтировали, чтобы сохранить память о людях,

которые сражались и не вернулись.

Сегодня «Сорвавшаяся звезда» Муйнака – не просто архитектурный объект. Это символ стойкости, веры и скорби, отражающий трагедию целого поколения и память о том, как надежда может стать вечным ориентиром в жизни.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.**

■ Самаркандская область

ВАЖНО ИСПРАВИТЬ



Капитан Отажон Эшмуротов начал службу в органах внутренних дел в 2020 году после окончания Академии МВД. Первое место работы – должность инспектора профилактики в одной из центральных махаллей Самарканда. С введением новой должности он был переведен в медицинский университет.

Здесь обучаются более 14 тысяч студентов, среди которых 3 200 иностранцев: пакистанцы, индусы, афганцы, россияне, – поясняет капитан. – Иностранные студенты особенно нуждаются в поддержке и помощи. Наши задачи – помочь им адаптироваться и предотвратить возможные правонарушения.

Инспектор наладил диалог с тьюторами – наставниками студентов, которые помогают инспекторам отслеживать посещаемость и поддерживать порядок. По инициативе капитана была также создана группа «Qalqon», в которую вошли 20 активных студентов. Они участвуют вочных рейдах, следят за порядком

– До назначения на новую должность я работал в махалле Куксарой города Самарканда, – рассказывает капитан. – Это был мой первый опыт взаимодействия с жителями, особенно с молодежью. Махалля расположена рядом с Университетским бульваром, где живет много студентов из других регионов. Большинство из них арендуют

жилье у местных жителей, поэтому требовалась особая бдительность.

За два года работы Отажона Эшмуротова в махалле не произошло ни одного преступления, хотя ранее здесь регистрировались тяжкие правонарушения, включая убийства.

– Университет является одним из старейших в Самарканде.

в общежитиях и организуют дежурства.

– Если студент возвращается поздно или назревает конфликт, активисты сразу сообщают мне. В сложных случаях подключаюсь лично, – объясняет капитан О. Эшмуротов. – В ближайшее время планируем ввести должность женщины-инспектора, которая будет заниматься проблемами студенток.

За время службы в университете количество правонарушений среди студентов снизилось вдвое. Это результат слаженной работы инспектора с активистами и тьюторами.

**Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



MULOHAZA

«KIPRIGIM – KO‘ZIMNIKI, FARZANDIM – O‘ZIMNIKI»

YOXUD BOLALARIMIZ QANDAY MULTFILMLAR TOMOSHA QILYAPTI?

Aksariyat onalar uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajarayotganda farzandlarini televizor qarshisiga o‘tqazib, biror qiziqarli multfilm qo‘yib berishadi. Aslida bolaning televizor ro‘parasida o‘tkazadigan vaqt ham tarbiyaviy soatga kiradi. Xo‘s, farzandlarimiz undan nima olyapti?



Bugungi kunda farzandlarimiz sevib tomosha qilayotgan xorij multfilmlarining hammasini ham tarbiyaviy ahamiyatga ega deb bo‘lmaydi. Aksariyatining g‘oyasi kichkintoylar yoshiga mutlaqo mos emas. Nafaqat kichkintoylar, balki ayrim katta yoshdagilar ham zavq bilan tomosha qiladigan «Shrek» multfilmidan birgina ko‘rinishni ko‘z oldimizga keltiramiz. Shrek havo shari o‘rniga qurbaqani tutib olib shishiradi. Yoki malika Fiona qush uyasidagi tuxumni olib pishiradi. Bunday lavhalarni ko‘rgach, yosh tomoshabinlarning murg‘ak qalbida jonzotlarga nisbatan qanday tuyg‘u uyg‘onarkin?! Axir, biz bolalarimizni hatto chumoliga ham ozor bermaslik ruhida tarbiyalaymiz-ku.

«Oppog‘oy» multfilmini ham nafaqat bolalar, kattalar ham sevib tomosha qilishadi. Ammo undagi ayrim kadrlar kishini bিroz o‘ylantirib qo‘yadi.


– Multfilm tomosha qilib o‘tirib, qizchamning tanbehidan uyalib qoldim, – deydi hamkasbim. – U ko‘zlarini mitti qo‘lchalar bilan to‘sib: «Ayajon, Oppog‘oy shahzoda bilan o‘pi-shayotganda qaramay turing, uyat bo‘ladi», desa bo‘ladimi? Afsuski, bolalarga mo‘ljallangan g‘arb multfilmlarining aksariyatida muhabbat sahnaları juda bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Vogeqliklar bolakay va qizaloqning bolalarcha samimiy munosabatlari emas, yigit va qizning ishqiy sarguzashtlari asosiga qurilgan. Quchish, erkalash, bo‘ssa olish kabi sahnalar ochiq-osh-kora namoyish etiladi.

Yana shunday multfilmlardan biri – «Sohibjamol va Maxluq» da ham go‘yoki chin muhabbat qissasi tasvirlangandek. Biroq voqealar niyoyasida saroyni va saroy ahlini birgina muhabbat bo‘sasi jodudan xalos etadi...

Afsuski, bunday multfilmlar juda ko‘p. Ba’zida ota-onalar bolalarining erta ulg‘ayayotgani, oilaviy munosabatlar borasida ham ko‘p narsani bilishga qiziqayotgani haqida goh mammun bo‘lib, gohida xavotir bilan gapirishadi. Bu o‘rinli xavotirning ildizi biz yuqorida ta‘kidlagan mult-

filmlarga tutash emasmi-kan!?


Biz o‘zimiz bolaligimizda qanday multfilmlarni ko‘rib ulg‘aygandik? Yoddingizda bo‘lsa, qirchilama qishda qizaloqning ikki quyonchaga uy qurib



berishi haqidagi multfilmni sevib tomosha qilganimiz. Undagi qahramon qizaloqning mehribonchiligidini ko‘rib, ana shunday mehrli bo‘lishni, nafaqat odamlarga, balki jonzotlarga nisbatan ham g‘amxo‘rlik qilish insoniy fazilat ekanini bilganmiz.

«Zumrad va Qimmat», «Sholg‘om», «Loloning sarguzashtlari» kabi multfilmlar bizga haqiqiy bolalikni berган. Ulardagi ijobiq qahramonlardek mehribon, quvnoq, g‘amxo‘r bo‘lishni istaganmiz. Hatto bolalarcha o‘ynlarimizda ham shu multfilmlardagi yaxshi qahramonlarni talashib-tortishib o‘ynaganmiz. Yomonlaridan qochganmiz.

Xuddi shuningdek, farzandlarimiz ham, multfilm qahramonlariga o‘xhashga intilishadi, harakatlari ga taqlid qilishadi. Ular tomosha qilayotgan multfilmlarda milliyligimiz lozim.



bolalarga atalgan o‘zbek tilidagi milliy kontentlarni topish qiyin edi. Yoshlar ishlari agentligining xayri tashabbuslaridan biri – bolajonlarimiz uchun milliy qahramonlar loyihasi yo‘lga qo‘yilgani bo‘ldi. Loyiha asosida qahramonlar obrazini gavdalantirgan «Bek va Lola» animatsion multfilmini bolajonlarimiz katta qiziqish bilan kutib oldi. «Bek va Lola» bolajonlarga milliy qadriyatlarimizni anglatish, ta’lim olish, odob-axloq qoidalarini o‘rgatish, tabiatni asrash va ularni sportga undab, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bolalarda ona tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish, Vatanga muhabbat, tabiatni asrash, ota-onasi va ustozlarni ulug‘lash tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida «Yashil makon» animatsion multseriali ham taqdim etildi. Yosh ekoqahramonlar – Jasur, Binafsha va uning do‘stlari, Metin va Zuvzuval suvdan oqilona foydalanish, chiqindini belgilangan joylarga tashlash, daraxt ekish va uni parvarishlash, hayvonot va o‘simlik olamiga sayohat kabi qadriyatlarimizni o‘rgatadi.

Albatta, bu hali yetarli emas. Farzandlarimizda bolalikdan xalq va

RUHSHUNOSLAR TAVSIYA QILADI

Multfilm bola tarbiyasida sezilarli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan vosita hisoblanadi. Shu bois ularni tanlashda ayrim tavsiyalarga amal qilish foydadan xoli emas. Masalan:

- * Yorqin ranglarning ko‘pligi bolani toliqtiradi.
- * Tasvirdagi har bir jonzot, o‘simlik, buyumlarning tabiiy rangda bo‘lishiga ahamiyat bering.
- * Qo‘rqinchli, yovuzlik bilan bog‘liq sahnalardan bolalarni yiroqroq tutgan ma‘qul, chunki bunday manzaralar bola ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- * Ko‘proq yaxshilikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi bilan bog‘liq xulosaga ega multfilmlar tanlashga harakat qiling.

Bolangizda salbiy fe'l-atvor shakllanmasligi uchun bu tavsiyalarga amal qiling.

ga, qadriyatlarimizga zid g‘oyalar bo‘lmasa, bu holni ijobiy baholash mumkin. Biroq aksi bo‘lsa-chi?

Shuning uchun milliy tarbiya usulimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan «ursur, yiqit-to‘ntar, o‘Idir» qabilidagi jangari sahnalardan iborat ingliz va rus tillaridagi g‘arb multfilmlarini jajji dilbandlarimizga shunchaki ovunchoq sifatida ko‘rsatishdan avval ular bolajonlar ongiga nimalarni singdirishiga e’tibor qaratishimiz lozim.

Kezi kelganda aytish joiz, avвалиари hatto ijtimoiy tarmoqdan ham

yurt taqdidi uchun fidoyilik tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois farzandlarimiz qanday ertak eshitib, qanday multfilm ko‘rayotganiga doim e’tibor berishimiz zarur. Bugungi axborot asrida asosiy e’tiborni milliy mahsulotlarni ko‘paytirishga, xorijdan kirib kelayotgan turli multfilmlardan himoyalishga qaratish, yosh avlodni ma‘naviy barkamol qilish tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini unutmaylik.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

«Postda – На посту» газетасининг 95 йиллигига

ЮЗДА ЮЗЛАШГАНДА

Байрамларнинг зўри азал-азалдан
Кутилгани дўст-ёр, қардош-хеш билан.
Бугун сизни, дўстлар, эрта сахардан
Кутлайман чин дилдан тўқсон беш билан.

Тўқсон беш йиллик – бу узоқ бир тарих,
Мушкулдир бермоқ ҳар йилига таъриф,
Бу байрам сиз учун азиз ва шариф,
Кутлайман чин дилдан тўқсон беш билан.

Кимdir йигирма беш, кимdir эллиқда,
Кимdir кўринмади тўқсон йиллиқда,

Бугун барчангизни оғзибирлиқда
Кутлайман чин дилдан тўқсон беш билан.

Ҳали юз билан ҳам юзлашишлар бор,
Ҳар юксак довонда юксалишлар бор,
Қанча янгилигу ўзгаришлар бор,
Кутлайман чин дилдан тўқсон беш билан.

Юзда юзлашганда юз ёруғ бўлсин,
Кўнгил кудуратдан чин фориғ бўлсин,
Бизнинг шодлик билан бу борлиқ тўлсин,
Кутлайман чин дилдан тўқсон беш билан.

Темир ҚУРБОН.



ҚУТЛОВ

ДАВР СИЛСИЛАСИДАН ЎТГАН

Эсимни танибманки, «Постда» газетаси саҳифаларида жиноятчиликнинг олдини олиш ва унга қарши кураш борасида ички ишлар органлари ходимларининг фаолиятига оид чуқур мулоҳазага чорловчи ҳамда қизиқарли туркум мақолалар чоп этиб келинади. Мен бундан қарийб 55 йил муқаддам илк бор мана шу газетани ўрта мактабнинг 5-синфида таълим олаётганимда француз тили ўқитувчимиз Жўрақул Илёсовдан олиб ўқиганман. Кейинчалик, устозимиз ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб пенсияга чиқди.

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач, «Postda» – «На посту» газетаси янада қизиқарлилиги билан тубдан ўзгарди. Жумладан, ички ишлар органларида 30 йилга яқин турли раҳбарлик лавозимларида хизмат қилган давримда ҳам газетада ёритилган мақолалар орқали жуда кўп янги билимларга эга бўлганман. Севимли нашримда чиқышлар қилганман.

Бугунги глобаллашув шароитида «Postda – На посту» газетасининг нуфузи кундан кунга ошиб бормоқда. Газета бир неча ўн минглаб муштариларига эга бўлди. Яқин ўтмишда мутафакир олимлардан бири: «Газета ўқимаган инсоннинг кўзи нурсиз, сўзи тузсиз кабидир», деган экан. Ички ишлар органлари фахрий ходими ва қолаверса, бир муштарий



сифатида ҳар пайшанба куни ишни айнан қадрдан газетам саҳифалари билан танишишдан бошлайман. Ранг баранг ижод намуналаридан кўринадики, таҳририят жамоаси кечау кундуз изланишда.

Газета саҳифасини тайёрлаш ва уни чоп этиш, китоб ёзишдан-да, мураккаб жараён. Чунки, газетага материаллар тайёрлаш ва уни чоп этишининг маълум муддати бор. Уни кечикириш асло мумкин эмас. Ана шу йўлда жавлон уриб қалам тебраатётган таҳририят ижодий жамоаси қолаверса барча ўқувчиларини қадрдан нашримизнинг 95 йиллик юбилей муносабати билан самимий муборакбод этаман. Юзингиз доимо ёруғ бўлсин!

Абдуғафур САТТАРОВ,
юридик фанлар доктори,
истеъфодаги полковник.

Зомин туманидаги Шароф Рашидов номли маҳалла фуқаролар йигинида яшовчи Ю.Н. вилоят ИИБ Навбатчилик қисмига кўнғироқ қилиб, профилактика инспектори, капитан Асилбек Холмуродовнинг хизматидан миннатдор эканлигини баён қилди. Мъълум бўлишича, мурожаатчининг ҳовлисидан тунда ўғирланган 6 дона алюминий профилли дераза ва эшикни қонун ҳимоячиси 3 соатда топишга муваффақ бўлган.

Жумладан, у кўча бошига ўрнатилган кузатув камераси тасвирларини кўздан кечириб, бемаҳал ҳаракатланган «Жигули»нинг кимга тегишли эканлигини ихтиёридаги планшет орқали аниқлаштириди. Ўз навбатида, «Ширин» маҳалласида яшайдиган гумон қилинувчининг уйида тинтуб ўтказилиб, ўғирланган буюмлар эгасига қайтирган.

Шу ўринда айтиш керак, 5 минг 700 дан зиёд қиши истиқомат қиладиган Шароф Рашидов номли маҳалла фуқаролар йигини туман марказида жойлашган, савдо ва хизмат кўрсатиш шоҳобчалари кўп, мос равишда келиб, кетувчилар бисёр. Мазкур жиҳат профилактика инспекторини доим сергак бўлишга ундейди. Қолаверса, жиноятчиликни жиловлашда фолларга таянмоқда.

Жумладан, еттиликнинг ҳар бир аъзосига 3 ёки 4 тадан кўча бириктирилган бўлиб, улар бандлик, ижтимоий ҳимоя, кўкаламзор-

БОГАТА ЛЕТОПИСЬ ТВОЯ

Девяносто пять лет – то срок немалый,
«Postda-На посту» – щит МВД бывалый!
С двенадцатого мая, с тридцатого года,
Несешь народу правду ты, без спора.

О доблести сотрудников рассказ ведешь ты,
О службе честной, что не знает суэты.
Светишь ты ярко, путь их озаряя,
И важность дела их всем открывая.

К столетию уверенно идешь,
Свой авторитет ничуть не подведешь.
Тебя читают, ценят, уважают,
И вклад ветеранов свято чтут и знают.

Богата летопись твоя, событий полон след,
Для каждого сотрудника ты важен,
словно свет.

Журналисты трудятся здесь с чистым
сердцем, всей душой,
В газете ты для них давно уж стал родной.

Пусть крепнет связь времен,
растут твои тиражи,
«Postda-На посту», ты гордость
нашей службы!
Еще долгие годы стой на страже слова,
И пусть звучит о МВД лишь
весть всегда живая.

Азиза БОХОДИРОВА.

КАСС ФИДОЙИСИ

ЭР ЙИГИТ ЭЛ ФАМИДА

лаштириш, жиноятларнинг олдини олиш каби масалаларга масъул хисобланадилар. Табиийки, капитан асосий эътиборини жиноят содир этиш эҳтимоли мавжуд шахсларга қаратади. Чунончи, унинг хуласалари асосида жорий йилнинг ўтган даврида 21 киши мавсумий, 5 киши доимий ишга жойлаштирилди. 4 кишига иш қуроллари учун субсидия ажратилган.

Шунингдек, 15 нафар фуқаро ҳар чорақда бир марта ёрдам кўрсатилади. Қолаверса, профилактика инспектори ташабуси билан ҳудуддаги ўрта умумтаълим мактабида туман ИИБ кубоги учун «Заковат» интеллектуал ўйини, маҳалла ёшлари иштирокида эса футбол ва волейбол мусобақалари ўюстирилди.

Капитан Асилбек Холмуродов бу юмушлардан ортиб, ички ишлар органлари ходимлари ўртасида ўтказилаётган кўрик-тандовларда фаол иштирок этмоқда. Чунончи, 2022 йилда «Энг яхши профилактика инспектори» кўрик-тандовлининг республика босқичида 2-ўринни қўлга киритди. Худди шундай, 2023 ва 2024 йилларда у аъзо бўлган Зомин тумани ИИБ жамоаси вилоят ички ишлар органлари ходимлари ўртасида ўюстирилган «Заковат» интеллектуал ўйинида 1- ўринни эгаллади.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиризим.

Жиззах вилояти.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz


UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

CHEMPIONLAR MAK TABI

Yoshlari ilmda va idrokda peshqadam, maqsadlarida sobit yurtning kelajagi porloqdir. Xuddi shunday yigit-qizlardan bir guruhi IV Andijon akademik litseyida tahlil olmoqda.

Mazkur dargohda 340 nafar o'quvchiga 4 nafar PhD o'qituvchi, 8 nafar bosh o'qituvchi, 5 nafar ofitser-serjant saboq berib keladi. 250 o'rinali yotoqxona, uch mahal issiq ovqat yaratilgan qulay shart-sharoitlarning bir qismi. Xonalarning kerakli o'quv jihozlari bilan ta'minlanganligi, mashg'ulot turiga qarab zallarning moslashtirilganligi esa ta'lif sifatini yanada oshiradi.

Interaktiv usullar hamda amaliy mashg'ulotlar asosida bilimlari



saygallanayotgan kelajak egalari joriy yilda ko'plab ko'zga ko'rinarli natijalarni qo'lga kiritishdi. Masalan, «Jangovar» sport klubi uch karra O'zbekiston championi bo'ldi. O'quvchilardan Ne'mat Abduraufov tayboks bo'yicha O'zbekiston va jahon, Zillola Oripova kikboks bo'yicha ikki karra, Zebo Ikromova bir karra, Ro'zxon G'anjonova belbog'li kurash, Munira Mannopova tayboks, Siyovush Aybekov taekvondo bo'yicha jahon championatlari shohsupasining eng yuqori cho'qqilarini zabt etdi.

Litsey yoshlarining ilmdagi muvaffaqiyatlari ham havas qilarli. Ayni paytda 107 nafari til, 31 nafari tarix va boshqa fanlardan milliy sertifikatlarga ega. Bu esa oliy ta'limga kirish imkoniyatlarni bir necha barobarga oshiradi.

Biz tashrif buyurgan kuni ingliz tilida «Zakovat» intellektual o'yini o'tkazilayotgan ekan. O'quvchilarning berilgan savollarga ingliz tilida aniq, ravon javob berishi e'tiborimizni tortdi. IELTSdan ball olish uchun imtihonga ketayotgan yana bir o'quvchiga ustozlar xuddi ota-onasidek iliq mehr bilan

oq yo'l tilashdi. Bundan ko'rindiki, har bir o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida mustahkam ustoz-shogird rishtalari bor.

– Bu yil ingliz tili va tarix fandidan 3 ta milliy sertifikatni qo'lga kiritdim, – deydi litseyning 2-bosqich o'quvchisi Oyatullo Abdujalilov. – Ikkala fandan 156 ball to'plab, muddatidan oldin oliygohga kirish yo'llanmasiga ega bo'ldim. Nasib qilsa, hujjatlarimni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga topshirmoqchiman. Kela-jakda bilimlarimni mukammalashtirib, huquq-tartibot organlarida halol xizmat qilish niyatidaman. Ikki yillik ta'lif menga juda ko'p yutuq va imkoniyatlar taqdim etdi. Bu litseyni tanlab adashmagan ekanman.

Ha, bu yil o'z tanlovidan xursand, muvaffaqiyatlaridan mammun yuzlab yoshlar ushbu ta'lif maskanini tamomlab, katta hayotga yo'l olmoqda. Ularga hamisha omad va yaxshiliklar yor bo'lishini tilab qolamiz.

**Nigoraxon TO'XTAMATOVA,
o'z muxbirimiz.**

Andijon viloyati.


PROFILAKTIKA XIZMATI

«QORAMON» – JINOYATDAN XOLI MAHALLA

Eng chekka hududlardan biri sanalgan Qo'shko'pir tumanining «Qoram» mahallasida 3 ming 500 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Hudud tinchligini ta'minlashdek muhim vazifa mahalla faollari hamda keng jamoatchilik hamkorligida amalga oshirilmoqda. Bunda profilaktika inspektori, mayor Sanjarbek Ollanazarovning ham hissasi katta bo'lyapti.

Keyingi paytda mahallada raqamlı texnologiyalar hamda kuzatuv kameralaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Ichki ko'chalarning kirish-chiqish joylariga, maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlariga, tadbirkorlik subyektlariga, shuningdek, jamoat joylariga 38 ta kuzatuv kamerasi o'rnatildi. Fuqarolar yuzini tanib oluvchi hamda avtotransport vositalari davlat raqam belgilari aniqlovchi 5 ta maxsus videokuzatuv kamerasi ishga tushirildi va profilaktika inspektori xizmat xonasiga integratsiya qilindi. Muhimi, ushbu zamonaviy qurilmalar yordamida ko'plab huquqburzilarning barvaqt oldi olinib, mahalla osoyishtaligi ta'minlanishiga erishilmoxqda.

Joriy yilning o'tgan davrida sodir etilishi mumkin bo'lgan 9 ta jinoyatning barvaqt oldi olindi. Jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan 5 nafar shaxs profilaktik hisobga qo'yildi. Belgilangan qonun talablariga rioya etmasdan, muntazam ravishda spirtli

ichimlik iste'mol qilgan 1 nafar shaxs majburiy davolash muassasasiga yotqizildi. 3 ta notinch oilada sog'iom muhit yaratildi. Mahalla hududida 31 marta profilaktik targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, fuqarolar bildirgan 41 ta murojaat ijobji hal etildi.

– Mahallamizda huquqburzilklar profilaktikasi va jinoyatçilikka qarshi kurasish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, jamoat uyushmalari bilan hamkorligidagi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqilgan, – deydi mayor Sanjarbek Ollanazarov. – Shu asosda kam ta'minlangan hamda notinch oilalar, jinoyat va huquqburzilklar sodir qilishga moyil shaxslar, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar, uyushmagan yoshlarning ro'yxatlari shakllantirilib, mahalla faollari, ta'lif muassasalari, mehnat bo'limi hamda boshqa jamoat tashkilotlari



vakillari hamkorligida manzilli profilaktik ishlar olib borilmoqda.

Mahallada o'g'rilik va boshqa turdag'i jinoyatlarning barvaqt oldini olishga ham eng dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada profilaktik targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish, fuqarolarning o'z mol-mulkini qarovsiz qoldirmasligi

muhim sanaladi. Shu bois mazkur yo'nalihsdag'i vazifalar mahalla kesimida keng targ'ib qilinib, noxush holatlar sodir etilishining barvaqt oldi olinyapti. Hamkorlikda amalga oshirilayotgan bu kabi sa'y-harakatlar natijasida so'nggi besh yil davomida, jumladan, joriy yilning o'tgan davrida mahalla hududida jinoyat sodir

etilishiga yo'l qo'yilmadi va «Qoram» jinoyatdan batamom xoli hudud sifatida e'tirof etildi.

**Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.**

Suratda: profilaktika inspektori, mayor Sanjarbek Ollanazarov xizmat paytda.



БЕМИННАТ ГАВҲАРЛАРНИ АСРАНГ

Тилимизда «Тиш оғриғи – кўринмас дард», деган ибора бор. Аслида ҳам шундай. Вақти-вақти билан стоматолог кўригидан ўтиш, кариеининг илк белгилари пайдо бўлиши билан даволаш чораларини кўриш эса бу борада меъёр ҳисобланади. Аммо пулни, вақтни қизғаниш, баъзан шифокордан қўрқиш сабабли тишни даволаш ортга суриласади. Хўш, тишлар ўз вақтида даволанмаса, инсон организмида қандай салбий ўзгаришлар юз беради?

Шикастланган тишни вақтида даволатинг

Агар тишлар соғлом ва бутун бўлса, ҳар қандай ташки зарбага чидамили бўлади. Улар ўз-ўзидан қимиirlab қолиши ёки синиши мумкин эмас. Аммо тишларнинг озгина заарланиши натижасида тиш деворлари заифлашиб қолади. Шунинг учун ҳам шикастланган тиш вақтида даволанмаса, уни бутунлай йўқотиб қўйиш хавфи ортиб бораверади.

Модда алмашинуви бузилади. Касал тишларнинг овқатларни яхшилаб чайнашга кучи етмайди. Натижада овқат ошқозонга майдаланмаган ҳолда тушади. Бу эса ҳазм қилишни қийинлаштириб, ошқозон-ичак йўлининг умумий ҳолатига салбий таъсир ўтказади. Натижада организмда метаболик касалликлар вужудга келади.

Ошқозон-ичак йўли касалликлари ортади

Агар тишлар вақтида даволанмаса, пародонтит касаллиги келиб



чиқади. Бу жараён юмшоқ тўқималарга таъсир қиласди ва тишларнинг тушиб кетишига сабаб бўлиши мумкин. Пародонтит касаллигини келтириб чиқарадиган инфекция иммунитетни тушириши ва ошқозон-ичак йўли касалликларини келтириб чиқариши ҳам эҳтимолдан холи эмас. Гастрит, ошқозон ва ўн икки бармоқли ичак яраси, панкреатит ва бошқа хасталиклар шулар жумласидандир. Шунингдек, милкларнинг тез-тез қонаши ва оғиздан ноҳуш ҳид келиши кузатилади.



Қандли диабет касаллиги ривожланиши мумкин

Милклар қанча кўп яллиғланган бўлса, қонда шакар миқдори шунча юқори бўлади. Организмда ушбу ҳолатлар ўртасидаги тўғридан-тўғри боғлиқлик аллақачон олимлар томонидан ўтказилган тадқиқотлар билан тасдиқланган. Шунингдек, тиш ва мілк даволангандан сўнг қонда глюкоза миқдори нормал ҳолатга қайтганлиги ҳам исботланган. Шунинг учун тиш ва мілк касалликларига беътибор бўлмаслик керак. Айниқса, қандли диабетга мойил бўлганлар ёки ушбу касалликка чалинганлар учун бу муҳим ҳисобланади.

Аёлларга тавсия

Хомиладорликни режалаштираётган аёлларга дастлаб оғиз бўшлиғини яхшилаб текширтириб, даволаниш тавсия этилиши бежиз эмас. Тиш ва милкларда пайдо бўладиган инфекциялар ҳомила ривожланишига ножўя таъсир ўтказиши ва унинг тушиш хавфини етти баробарга ошириши мумкин.

Юрак ва қон томирлар хавф остида бўлади

Ўтказилган тадқиқотлар шуни тасдиқлади, ҳар бир даволанмаган тиш юрак хуружини икки бараварга оширади. Бундан ташқари, қон томирлари, юрак хуружи, юрак етишмовчилиги хавфи ортиб боради. Шу билан бирга, карие таъсирида бўлган тишларда ривожланётган инфекциялар қон томирлар деворларининг яллиғланшига ҳамда қонда тромблар ҳосил бўлишига олиб келиши мумкин.

ТОЗА ҚЎЛЛАР – СОҒЛОМ ҲАЁТ КАФОЛАТИ

Аҳоли, айниқса, ёш авлод вакиллари томонидан санитария-гигиена воситаларидан фойдаланиш имкониятларини янада кенгайтириш мақсадида давлатимиз раҳбари ташабbusi билан 2025 йил 1 майдан бошлаб «Тоза қўллар» дастури амалга ошириб келинмоқда.

Дарҳақиқат, инсон саломатлиги кўп жиҳатдан гигиена қоидаларига риоя қилишга боғлиқ. Ушбу қоидалар ичида энг муҳимларидан бири қўлларни тоза сақлашдир. Бугунги кунда дунё бўйлаб миллионлаб касалликлар айнан ифлос қўллар орқали юқиши исботланган. Шунинг учун ҳам «Тоза қўллар – соғлом ҳаёт кафолати» деган гап бежиз айтилмаган.

Хўш, қўлларнинг ифлосла-ниши нималарга олиб келади?

Ифлос қўллар орқали қўйида-ги юқумли касалликлар юқиши мумкин:

- дизентерия;
- гепатит;
- ичак инфекциялари;
- гелминт (қўртли) касалликлар;
- грипп ва ўтқир респиратор ви-русли инфекциялар касалликлари.

Бу касалликлар кўпинча болалар, кексалар ва иммунитети паст бўлган инсонларга оғир таъсир қиласди.

Қўлларни қачон ювиш зарур?

Қўлларни мунтазам равишда тоза сақлаш жуда муҳим. Қўйи-



даги ҳолатларда қўлларни ювиш шарт:

- овқат тановул қилишдан олдин ва кейин;
- ҳожатхонадан кейин;
- кўчадан, бозордан, мактаб ёки иш жойидан қайтгач;



- беморларга қарагандан сўнг;
- ҳайвонларга теккандан сўнг.

Қўл ювишнинг тўғри усули

1. Қўлларингизни илиқ сув билан намланг.
2. Суюқ ёки қаттиқ совун ишлатинг.
3. Қўлларингизни камидан 20 сония давомида ишқалаш, бармоқ ораларини тозалаш керак.
4. Оқиб турган сувда совун қолдикларини чайқанг.
5. Қўлларингизни тоза салфетка ёки ҳаво қуриткич билан қуритинг.

Эслатма: Агар сув ва совун бўлмаса, камидан 60 фоиз спиртли антисептик воситалар ишлатиш мумкин.

Болаларга қўл ювиш одатини ўргатиш:

- Болага қўл ювишнинг аҳамиятини тушунтириш керак;

- Қўшик ёки ўйинлар орқали қўл ювишни қизиқарли қилиш мумкин;
- Катталар ўзи намуна кўрсатиши зарур.

Хулоса ўрнида

Қўл ювиш – оддий, бироқ жуда самарали саломатлик чораси. Бизнинг қўлими орқали жуда кўп инфекциялар тарқалади. Шунинг учун ҳар бир инсон, айниқса, болалар ва ота-оналар, қўл гигиена-сига эътибор бериши лозим. Тоза қўллар нафақат ўзимиз, балки атрофдагиларнинг ҳам соғлигини асрашга ёрдам беради.

Сардор ҲОМИДОВ,
Фарғона вилояти ИИБ
Тиббиёт бўлими Санитария-эпидемиология назорати
маркази бошлиғи,
катта лейтенант.



МНОГОЛЕТНЕЕ СЛУЖЕНИЕ ПРАВДЕ И ЗАКОНУ

Уважаемые коллеги издания «Postda—На посту»!

Сердечно поздравляем вас с 95-летним юбилеем! Ваша газета является летописью жизни Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, отражая мужество и героизм сотрудников правопорядка. Она служит зеркалом времени, в котором запечатлены знаковые события и судьбы людей.



Мы высоко ценим наши давние и плодотворные связи, которые с годами только крепнут. Памятны встречи и общение с вашими журналистами, включая визит начальника ФКУ «Объединенная редакция МВД России» полковника внутренней службы Александра Жебровского в Узбекистан.

Ярким свидетельством высокого уровня журналистского мастерства и тесного сотрудничества между нашими изданиями стали победы корреспондентов вашей газеты в конкурсе МВД России «Щит и перо» в номинации «Содружество». В этот знаменательный день желаем вам, дорогие коллеги, крепкого здоровья, неиссякае-

мой энергии, творческого вдохновения и новых профессиональных свершений! Пусть ваша газета и впредь остается надежным источником информации, верным другом и советчиком для сотрудников органов внутренних дел и всех читателей! С юбилеем!

**С уважением,
коллектив газеты
«Щит и меч».**

СКАНВОРД

Себе подобному глаз не выклюет	Программа, имитирующая человека	Загнутый угол одеяла	Коричневая краска	Растение со вкусным клубнем	Семейная пара	Танец у болгар
Пещера, выемка в скале	Наилучший вариант				Буква от Кирилла и Мефодия	Лекарственное растение
Полигамия	Полосатое насекомое	Секретная азбука	«Напарник» трепетта	«Донна» из Швеции	Лягушка на Востоке	«Цена жизни» пчелы
Брачный «маклер»	Цилиндрическая подушка	Зверь с хоботом	Книжный ...	Небольшое стихотворение	Мостовая опора	Пресноводная рыба
Скоростной парусник	Призвание Джеймса Бонда		Один из символов города	Три раза в дверь	«Внешность» Италии	Режущий инструмент
Глубокая печаль	Литератор ... Шоу				Что твердня, что цитадель	Вездесущий сорняк
						Богиня безумия

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(19 – 25 мај)



Қўй. Оиласи муносабатларни мустаҳкамлаш учун яқинларингизга кутилмаган совға ҳозирланг. Улар бу ҳаракатингизни шубҳасиз қадрлашади. Жисмонан оғир вазифалардан четлашиб, таъбни хира қилувчи ва кўнгилни оғритувчи барча ҳолатлардан узоқлашинг.



Бузоқ. Анчадан бери олишга умид қилган пул маблағи бу ҳафта қўлингизга келиб тушади. Уларни оқилона сарфлашга ҳаракат қилинг. Эҳтимол, аввалдан режалаштирилмаган сафарга чиқишингиз мумкин. Айниқса, гап дам олиш ҳақида кетаётган бўлса, ҳеч иккиланмай розилик билдиринг.



Эгизаклар. Сизни ёқимли ўзгаришлар кутмоқда. Оила аъзоларингиз билан муносабатда баъзи қарашларингизни ўзgartириб, сабрли ва ширинсўз бўлинг. Ҳафта сўнгидаги улар билан бирга тоза ҳавода сайр қилинг. Дам олиш кунларини табиат қўйнида ўтказиш саломатлигингиз учун жуда фойдалидир.



Қисқичбақа. Уддалай олишга кўзингиз етмаган ишларга қўл урманг. Баъзи қўлингиздан келмаган юмушларни бошқаларнинг елкасига юклашни ўрганинг. Дам олиш кунларини шаҳар ташқарисида ўтказиб, тоза ҳавода ҳордик олишни режалаштиринг.



Арслон. Шу кунларда ўзингизни ҳеч нарсага улгурга олмаётгандек ҳис қиласиз. Қисман бу чиндан ҳам шундай. Диққат-эътиборингизни жамланг! Бор куч-шижоатингизни тўплаб, янада фаол ҳаракат қилинг. Ҳафтанинг иккинчи ярмидаги саломатлигингизга жиддий эътибор қаратинг.



Паризод. Ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўрнини босиб бўлмас ходим эканингизни ҳаммага исботланг. Ўзингизга бўлган ишонч даражасини юкори ушланг, касбий маҳоратингиз юксаклигига ҳеч ким шубҳа қиласин. Лекин яхши таниш бўлмаган одамлар билан ўз режаларингизни ўртоқлашманг.



Тарози. Бу ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўрнини босиб бўлмас ходим эканингизни ҳаммага исботланг. Ўзингизга бўлган ишонч даражасини юкори ушланг, касбий маҳоратингиз юксаклигига ҳеч ким шубҳа қиласин. Лекин яхши таниш бўлмаган одамлар билан ўз режаларингизни ўртоқлашманг.



Чаён. Шу кунларда ким биландир тортишган ва жанжаллашган бўлсангиз, имкон қадар тезроқ ярашишга ҳаракат қилинг. Иш жойингизда зимманингизга мураккаб вазифа юкланиши мумкин. Мазкур ҳафта иш билан боғлик тадбирларда иштирок этиш учун мақбул даврdir.



Үқотар. Бирон бир иш сиз кутгандек кетмаётган бўлса, умидсизликка тушманг. Тез орада ҳаммаси яхшиликка бўлганини тушуниб етасиз. Оила аъзоларингизга кўпроқ меҳр беринг. Уларнинг кўнглини оғритмаслик учун ҳар бир сўз ва амалингизга эътиборли бўлинг.



Тоф эчкиси. Ҳаётингизда ўзгариш қилмоқчи бўлсангиз, бу ишни вақтинча энг қулай пайтга қолдириб турган маъқул. Бу ҳафта иш жойингизда ҳамкасблар билан зиддиятли вазиятлар юзага келиши мумкин. Низони имкон қадар чўзмасликка ҳаракат қилинг.



Қовға. Ҳафта давомида имкон қадар норозилик ва ғазабни жиловлашга ҳаракат қилинг, атрофдагилар билан зинҳор баҳслашманг. Яхшиси куч-ғайратни оила ичида муносабатларни мустаҳкамлашга сарфланг. Дам олиш кунларини ҳам севимли ва қадрли инсонлар даврасида ўтказинг.



Балиқ. Агар ўтган ҳафта охирига етмай қолган ишлар бўлса, дарҳол уларни ҳал этинг. Бу даврда яқин кишилар ўртасидаги муносабатларга путур етиши мумкин. Иложи борича низоли ҳолатлардан йироқ туринг. Атрофдагиларга яхши кайфият улашинг, бошига ташвиш тушганларни қўллаб-қувватланг. Оила аъзоларингиз ва қадрдонларингизга эътиборли бўлишни унутманг.

TEMIR IRODALI OLTIN ODAMLAR

Elning suyanchig'i sharaf-shon bo'ling,
Tinchlikka qalqonlar, baxtga hamdamlar,
Siz salomat bo'ling, siz omon bo'ling,
Temir irodali oltin odamlar.

Olam nurga to'lgan, atrof osuda,
Sizga hamroh bo'lsin dilorom damlar,
Ta'zimiz sizga, sizga ehtirom,
Temir irodali oltin odamlar.

To'rt fasl bedorsiz, el farog'atda,
Kunlari xizmatda, tunda xizmatda,
Bayramda postdasiz, yana navbatda
Temir irodali oltin odamlar,

Sizgadir elimning duo so'zları,
Zahmatla yurakka yaqin odamlar,
Yelkangizga qo'ngan baxt yulduzlar,
Temir irodali oltin odamlar.

Zulfiya MO'MINOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, shoira.



STEREOTASVIR



Ushbu tasvir ostida
sirlı hajmiy (3D) rasm
yashiringan. Topishga
urinib ko'ring.

Rasmga qaragan paytingiz nigohingizni
bo'sh qo'ying. Rasm chaplanib ketgach,
nigohni uzmasdan sekinlik bilan
uzoqlashing:

G'UNCHADEK NAFISSIZ (Posbon xotin-qizlarga)

Biringiz polkovnik, biringiz serjant,
Biringiz kapitan, biringiz mayor.
G'unchadek nafissiz, katta leytenant,
Qatorda qad kerib yurishingiz zo'r.

Jasorat, mardlikda erlarga mengzar,
Azm-u shijoat bor yurishingizda.
Husn-u latofatda benazirsizlar,
Lutf-u nazokat bor kulishingizda.
Podpolkovnik opa donishmandga xos,
Hikmatlar bitasiz qonun nomidan.
Kimdir to'g'ri yo'ldan adashsa bexos,
Qutqarib qolasiz g'urbat domidan.

Sizga ham tilagim aytmog'imdir shart,
Buyuk ishlar goho lahzalarda hal.
Imkonni boy bermang barno leytenant,
Siz bo'la olasiz, hatto – general.
Yulduzlar nozlanib boqqanda ko'kdan,
Katta serjant qizlar postda mardona.
Izg'irin shamoli yuzidan o'pgan,
Kichik serjant qizlar yurtga parvona.

Nega qosh chimirib, burayapsiz lab?
Nega yanog'ingiz cho'g'dek qizardi?
Bizni unutdi, deb o'yladingizmi?
Singlim, deb atayman safdar qizlarni!

Begi DO'ST.

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rbinbosarlari

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

Temir QURBONOV
Yuliya CHAYKINA

Mas'ul kotib

Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1265.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45600 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqt – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1st-uy.